



Termiz davlat universiteti | Termez state university

BARQAROR RIVOJLANISH BO'YICHA O'TKAZILGAN TADBIRLAR HISOBOTI



Hurmatli ustozlar, hamkasblar va talabalar!



Mamlakatimizda keyingi yillarda oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijalari –ustozlar va yoshlarning erishayotgan yutuqlari, jahon miqyosida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarimizning amaliy ifodasidir. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonining qabul qilinishi barcha oliy ta'lim muassasalari faoliyatini, xususan universitetimizni rivojlantirish yo'lidagi asosiy qadamlardan biridir.

So'nggi yillarda universitetimiz hayotida ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi. Jumladan, universitetimizda hozirgi kunda 35 nafar fan doktori va professorlar, fan nomzodi va falsafa doktorlari 164 nafar, 97 nafar dotsentlar faoliyat olib borayotgani quvonarli hol, albatta. Universitetning kelajak besh yillik istiqboli strategiyasida o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, ilmiy faoliyatini yanada takomillashtirish, universitetning xalqaro va milliy reytingdagi mavqeini oshirish va mustahkamlashni maqsad qilganmiz.

Buning uchun ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion izlanishlarni kengaytirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorij olimlari bilan ilmiy kollaboratsiyani kengaytirish, yoshlarimizning ilm-fan va ijodiy sohalarga keng jalb etish ishlarini yanada oshirish lozim.

Universitetni jahon reytingida yuqori bòlgan Top-1000 oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiritish, ilmiy salohiyatini oshirish yo'lida barcha professor-òqtuvchilar, yosh olimlar, magistrantlar va talabalarni Vatanimiz va universitetimiz barqaror rivojlanishi uchun fidoiy va faol bòlishga chorlayman.

Termiz davlat
universiteti rektori,
professor

Marahimov Avazjon Raximovich

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETIDA
TALABA YOSHLARNI 2021-YIL O‘QUV
YILI DAVOMIDA MODDIY
RAG‘BATLANTIRISH BO‘YICHA AMALGA
OSHIRILGAN ISHLAR**

**1 NO
POVERTY**



Termiz davlat universitetida 2021-yil davomida universitetda talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlar, sport musobaqalari g‘oliblari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga 1149327952 (Bir milliard bir yuz qirq to‘qqiz million uch yuz yigirma yetti ming to‘qqiz yuz ellik ikki) so‘m miqdorida moddiy yordam va rag‘bat berildi, shundan, Ijtimoiy himoyaga muhtoj (Imkoniyati cheklangan, chin yetim va oilasi “Temir daftar”ga kiritilgan) 246 nafar talabalarga Navro‘z bayrami munosabati bilan va 3-dekabr “Nogironlar kuni” munosabati bilan 338 nafar talabalarga jami 465903680 (To‘rt yuz oltmish besh million to‘qqiz yuz uch ming olti yuz sakson) so‘m miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi.

Sport sohasida yutuqqa ega bo‘lgan 55 nafar talabalarimiz jami 48040640 (qirq sakkiz million qirq ming olti yuz qirq) so‘m miqdorida moddiy rag‘batlantirildi.

Yil davomida o‘z tashabbuskorligini ko‘rsatgan va ma‘naviy-ma‘rifiy tanlovlar va tadbirlarda faol qatnashib kelgan va ijtimoiy ahvoli og‘ir, boquvchisini yo‘qotgan 935 nafar talabalarga jami 635383632 (olti yuz o‘ttiz besh million uch yuz sakson uch ming olti yuz o‘ttiz ikki) so‘m miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, 15 nafar talaba 37 493 424 so‘mlik (5 ta kompyuter, 5 ta planshet, 5 ta mobil telefon) moddiy qiymatliklar bilan taqdirlandi.

- Talabalarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, talaba-yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida kitobxonlik kechalari, turli xil tanlov va musobaqalar tashkil etilgan. Talabalar va uyushmagan yoshlar o'rtasida ommaviy sportni va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida 12 ta sport turlari bo'yicha 40 ga yaqin sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda fakultetlararo va kurslararo sport musobaqalari tizimli tashkil etilgan.

- Universitetda "Surxon sabolari" raqs ansambli, "Maqomchilar ansambli", "Savti Surxon" orkestri, "Jayxun" etnografik-xalq ansambli, "Dutorchilar" va "Doirachilar" ansambllari, Estrada qo'shiqchilik to'garagi, An'anaviy xonandachilik to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan va ushbu to'garaklar samarali faoliyat yuritishlari uchun jami 26 mln 568 ming so'mlik musiqa asboblari, sport to'garaklari uchun esa 60 mln 400 ming so'mlik sport anjomlari yetkazib berilgan.

-Ijodkor talabalarning joriy yil aprel-may oylarida mahallalarning yoshi ulug' keksalari, Ayollar daftari ro'yxatda turgan xotin-qizlar, mahalla faollari va uyushmagan yoshlar uchun Termiz shahridagi San'at saroyida 3 marta madaniy tadbir va konserti tashkil etildi. Ushbu konsert dasturlarini viloyatning barcha tumanlarida yil davomida o'tkazish bo'yicha choralar belgilangan.

- Talaba-yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va universitet kutubxona fondini oshirish, adabiyotlar bilan ta'minlash maqsadida 2021-yil boshidan buyon umumiy qiymati 108 mln so'mlik 33 nomdagi 410 ta o'quv va 111 nomdagi 3725 ta badiiy adabiyotlar xarid qilingan.

- Universitet talaba-qizlari hamda Termiz shahridagi mahallalarning "Temir daftar" va "Ayollar daftari"da ro'yxatga olingan oila farzandlarini hamda "Yoshlar daftari"dagi yoshlar kasb-hunarni o'rganishlari uchun 3 ta bepul "Tikuvchilik" kurslari faoliyati Arxitektura va qurilish fakultetida 18 ta tikuv mashinasi, O'zbek filologiyasi fakultetida 23 ta tikuv mashinasi, 1 ta overlok, Milliy libos fakultetining "Dizayn studiyasi"da 20 ta tikuv mashinasi, 4 ta dazmol va 4 ta bichuv stoli, 2 ta vishevalka mashinkasi, 3 ta overlok, 3 ta milliy kashta tikish dastgohi o'rnatilgan.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz shahrida, universitetga yaqin hududda joylashgan 12 ta:

Tuproqqo'rg'on, Gulirano, Mehriobod, Alisher Navoiy, O'zbekiston, Alpomish, Bog'ishamol, Bog'zor, Shodlik, Jayxun, Abdulla Avloniy va Bo'ston mahallalari universitetga biriktirilgan.

- Ushbu mahallalarda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni keng targ'ib qilish, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"da ro'yxatga olingan oila farzandlarini hamda "Yoshlar daftari"dagi yoshlarni, xususan, uyushmagan yoshlarni ilm va kasbga yo'naltirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha ishlar amalga oshirmoqda. Shuningdek, ushbu mahallalar bilan hamkorlik qilish, yoshlarni oliy ma'lumot olishga qiziqtirish,

mahalladagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, yoshlar o'rtasida turli tanlov, musobaqalar o'tkazishga ko'maklashish, universitetning moddiy texnika bazasidan foydalangan holda biriktirilgan mahallalardagi yoshlarni ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda 13 ta sport to'garaklari, 7 ta san'at to'garaklari, 4 ta kasbga o'qitish to'garaklari, 3 ta oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlash kurslari, 7 ta fan to'garaklari va 2 ta intellektual klublar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Sport to'garaklariga 1150 nafar, tadbirkorlik va kasbga o'qitishga 720 nafar, kompyuter savodxonligiga 190 nafar, xorijiy til to'garaklariga 310 nafar, badiiy ijodkorlik klubiga 90 nafar, OTMga bepul tayyorlov kurslariga 230 nafar uyushmagan yoshlar jalb etilgan. Mahallalar yoshlari o'rtasida joriy yilning 29-aprel kuni sportning 100 metrga yugurish (ayollar va erkaklar o'rtasida), futbol (erkaklar o'rtasida), arqon tortish (ayollar va erkaklar o'rtasida) va armrestling (ayollar va erkaklar o'rtasida) turlari bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqalari tashkil etilgan bo'lib, g'oliblar universitet rektorati tomonidan umumiy qiymati 8 mln. so'mlik qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan.

-Universitetga biriktirilgan mahallalarda viloyat tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda 14 nafar bemor fuqarolar kasalxonalariga joylashtirilgan, 61 nafar fuqaroga dori-darmon olib berilgan, 132 nafariga tibbiy yordam ko'rsatilgan, 78 nafar kam ta'minlangan oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazilgan, kommunal to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan 23 ta oilaning qarzdorligi bartaraf etilgan, 68 ta oilaning suv quvurlari tozalanib, ichimlik suvi bilan ta'minlangan, 11 nafar fuqaro ish bilan ta'minlangan, Ayollar daftaridagi 6 nafar fuqaroga imtiyozli kredit va 3 nafariga moddiy yordam berilgan, boquvchisini yo'qotgan 10 nafar bolalarning sunnat to'yi o'tkazilgan, 2 ta oilaning hovli devorlari ta'mirlangan va 1 nafar nogironligi bo'lgan yosh bolaga nogironlar aravachasi berilgan hamda elektr toki bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida simyog'ochlar tortilgan. Mahallalardagi ko'cha va ariqlar chiqindilardan tozalanib,

daraxtlarga ishlov berilgan hamda to‘planib qolgan chiqindilar tashib chiqilgan. Jami 185 dona mevali va manzarali daraxtlar ekildi.

MUNOSIBLAR ANIQLANDI

Termiz davlat universitetida iqtidorli talabalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga o‘z iste‘dodlarini namoyish etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, turli tanlovlar tashkil etilib, ular moddiy jihatdan rag‘batlantirilmoqda.

Termiz davlat universiteti kengashining kengaytirilgan 2021-yil 27-fevraldagi 8-sonli yig‘ilish qarori bilan talabalar o‘rtasida “San’atshunoslik, Arxitektura va qurilish fakultetlari o‘quv binosini ta’mirlash, o‘quv-ilmiy maskanga aylantirish va hududini obodonlashtirish (landshaft)” mavzusida tanlov o‘tkazish belgilangan edi.

Ishtirokchilar tanlov komissiyasiga o‘z ijod ishlarini taqdim qilishdi. 26-mart kuni Hay’at a’zolari har bir ishni adolatli, shaffof tarzda ko‘rib chiqib, 3 ta o‘rinni aniqlashdi.

G‘oliblar universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan belgilangan tartibda universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan kompyuter, noutbuk va mobil telefonlar bilan rag‘batlantirildilar.



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI KAMPUSIDA TALABALARNING SIFATLI VA TO‘YIMLI OZIQ OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLANISHI

2 ZERO
HUNGER



Termiz davlat universiteti kampusida 6 ta TTJ mavjud bo‘lib, bularda jami 2695 nafar talabalar istiqomat qiladi. Har bir talabalar turar joyida talabalarning sifatli va to‘yimli oziq ovqat mahsulotlari bilan oziqlanishlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlaydigan do‘konlar va 35 ta oshxonalar mavjud.

Oziq-ovqat do‘koni hodimlari talabalar uchun eng sifatli bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini har kuni sanitariya gigeniya talablariga asosan yetkazib berishadi. Olib kelingan har kunlik oziq-ovqat mahsulotlari universitetda faoliyat yuritayotgan sifat nazorat hodimlari tomonidan doimiy ravshivda tekshirib boriladi.

Termiz davlat universitetidagi oziq-ovqat do‘koninig umumiy ko‘rinishi



Termiz davlat universiteti TTJ dagi oshxonalarning umumiy ko‘rinishi



CHIQUINDILARNI BARQAROR BOSHQARISH UNIVERSITET BOSH MAQSADLARIDAN BIRI

2 ZERO
HUNGER



Chiqindisiz texnologiyaga nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda keng e'tibor qaratilgan hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YEEK) qarori bilan mustahkamlangan.

Termiz davlat universitetida qishloq va suv xo'jaligi sohasida 60530700 – Tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kadrlar tayyorlanadi. 2021-yil 19 nafar talaba bitirdi. Hozirda ushbu ta'lim yo'nalishida 55 nafar talaba tahsil olmoqda.

Universitet professor o'qituvchilari tomonidan mahalliy fermerlar va oziq – ovqat ishlab chiqaruvchilariga oziq – ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi bo'yicha bilim, ko'nikma va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha seminar treninglar tashkil etib kelmoqda. Jumladan, 2021-yil 14 – 15 aprel kunlari “Sof ekologik toza mahsulot yetishtirish” mavzusida seminar tashkil qilindi. Termiz davlat universiteti professor o'qituvchilari Termiz tumanidagi fermer xo'jaliklarining behi va olxori bog'larida zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berdi.



**MAHALLIY FERMERLAR VA OZIQ – OVQAT
ISHLAB CHIQRUVCHILARGA BARQAROR
DEHQONCHILIK AMALIYOTINI YAXSHILASH
UCHUN UNIVERSITETDAGI
LABORATORIYALARIDAN BEPUL FOYDALANISH
IMKONIYATLARI**

2 ZERO
HUNGER



Universitet mahalliy fermerlar va oziq – ovqat ishlab chiqaruvchilarga barqaror dehqonchilik amaliyotini yaxshilash uchun fermerlar va oziq – ovqat ishlab chiqaruvchilariga universitetdagi laboratoriyalaridan bepul foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Barqaror oziq – ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabni qondirish uchun universitet mahalliy fermerlar va oziq – ovqat ishlab chiqaruvchilari bilan yaqindan aloqa oʻrnatgan. Respublikamizda soʻnggi yillarda aholini oziq-ovqat va boshqa qishloq xoʻjaligi, xususan, sabzavot mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini toʻla qondirish maqsadida sabzavotchilik tarmogʻida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. shuning uchun ham qishloq xoʻjaligi ekinlaridan yuqori hosil olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Universitet professor oʻqituvchilari tomonidan fermerlar va oziq ovqat ishlab chiqaruvchilariga qishloq xoʻjaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish boʻyicha, mahalliy organik va mineral oʻgʻitlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish hamada mintaqaning iqlim sharoitiga mos navlarni tanlash boʻyicha tavsiyanomalar ishlab chiqilgan. Buning natijasida universitet barqaror oziq – ovqatga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishda mahalliy fermer va oziq – ovqat ishlab chiqaruvchilaridan arzon va sifatli oziq – ovqat mahsulotlarini sotib olish yoʻlga qoʻyilgan.



Talabalarga jinsiy va reproduktiv salomatlik, shu jumladan axborot va ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati

3 GOOD HEALTH AND WELL-BEING



Talabalarga doimiy ravishda jinsiy va reproduktiv salomatlik to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilmoqda, turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 203-auditoriyasida “Jinsiy va reproduktiv salomatlik” mavzusidagi tadbir BAYONNOMASI

Qatnashdilar: Zoologiya kafedrası katta o'qituvchisi M.Raxmatova (tibbiy bilim asoslari mutaxassisi), Zoologiya kafedrası katta o'qituvchisi B.Raxmatullayev, Tabiiy fanlar fakulteti 2-kurs 120-guruh talabalari

Zoologiya kafedrası katta o'qituvchisi M.Raxmatova “Jinsiy va reproduktiv salomatlik” mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, yoshlar hayotida jinsiy va reproduktiv salomatlikning o'rni, bu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan tadbirlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Talabalarga yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, uning oqibatlari, oldini olish haqida tushuntirildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Zoologiya kafedrası katta o'qituvchisi B.Raxmatullayev so'zga chiqib, jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha asosan nimalarga e'tibor berish kerakligi, bu masalada talabalar oldiga qo'yiladigan vazifalar to'g'risida qimmatli va qiziqarli ma'lumotlar va tavsiyalarni berdi.

Shundan so‘ng tadbir qatnashchilari o‘zlarini qiziqtirgan savollarni berishdi. Jumladan, Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari M.Abraeva, D.Roziqova va boshqa qatnashchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

So‘ng tadbir qatnashchilariga jinsiy va reproduktiv salomatlikka oid bo‘lgan videofilm namoyish qilindi. Tadbir qatnashchilariga bukletlar tarqatildi.

Yuqoridagi ko‘plab savol-javoblar, fikr va mulohazalardan so‘ng yig‘ilish.



Ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash

Universitetda professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar va talabalarning salomatligi, jumladan ularning ruhiy salomatliklarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida profilaktoriy ishlab turibdi. Boysun tumani Darband qishlog‘ida “Darband” oromgohi ishga tushirilib, professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar va talabalarning dam olishlari, davolanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDA UMR BO‘YI TA‘LIMNI TA‘MINLASH MAQSADIDA KASBIY TA‘LIM TADBIRLARI

4 QUALITY
EDUCATION



Termiz davlat universitetida Kasbiy ta‘lim tadbirlari ham doimiy ravishda tashkil etilib kelinadi. Jumladan keng jamoatchilik uchun ochiq bo‘lgan tadbirlar o‘tkazililib, bu iniversitetga bormaydigan odamlar uchun tashkil etiladi va bu kasbiy ta‘lim tadbirlar orqali avlodlar o‘rtasidagi qashshoqlikni bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari targ‘ibot tadbirlari natijasida sifatli ta‘lim berish ko‘nikmalari, mustaqil izlanish malakalari shakllanadi hamda avlodlar o‘rtasida o‘z mutaxassisligini chuqur o‘rganib jamiyatda o‘z o‘rnini topishdek, zamon bilan hamnafas bo‘lishdek, ilg‘or kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishdek xususiyatga ega bo‘ladilar.

Shu jumladan Kasbiy ta‘lim tadbirlari doirasida Sherobod tumani 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi bilan hamkorlik ishlari olib borildi. Ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi v.b.dotsent vazifasini bajaruvchisi D.Yakibova „Mehnat kishini ulug‘laydi“ mavzusida ochiq amaliy dars mashg‘ulotlarini olib bordi.



Retrica

Axborot texnologiyalari fakulteti katta o'qituvchisi M.Djurayev Muzrabot tumanida 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib Universitet yaratilgan imkoniyatlar IT markazi, 7-qavatli Axborot texnologiyalar fakulteti, Axborot texnologiyalar markazlari haqida yosh avlodlarga jamoat ta'lim tadbirlarini tashkil etdi. Surat shu haqda



2022-yil 28- iyul Bugun Bandixon tumanida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni targ‘ib qilish bo‘yicha Tabiiy fanlar fakulteti professor-o‘qituvchilari, jumladan Tabiiy fanlar fakulteti yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari, O.Normuratov, Botanika kafedrasini mudiri A. Begmatov, o‘qituvchi T. Rajabov hamda tumandagi IIB bo‘limi Ma’naviy marifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari podpolkovnik B.Jabborovlar Bandixon tumanining “Bektepa” “Farovon” “Saroy” mahallasi fuqarolari bilan va Bandixon tumani IIB bo‘lim xodimlari ishtirokida Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartirish va takliflar muhokama qilindi.





2022-yil 29- iyul Bandixon tumanida Termiz davlat universiteti odamlarga sifatli ta'lim berish orqali ular avlodlar o'rtasidagi qashshoqlikni bartaraf etishga yordam berishi haqida maxsus Kasbiy ta'lim dasturlari doirasida "Bag'ri keng", "Zevar", "Obod yurt" mahallalari fuqarolari bilan targ'ibot o'tkazildi.

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI TOMONIDAN BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI YO‘LIDA TA‘LIM SIFATIN OSHIRISH MAQSADIDA YIL MOBAYNIDA TASHKIL ETILGAN OMMAVIY TADBIRLAR

4 QUALITY
EDUCATION



Termiz davlat universitetida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.07.2014 yildagi “OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi 205-son Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Universitetda Ommaviy tadbirlarni tashkil etish uchun Ish beruvchi korxonalar va tashkilotlardan, iqtisodiy markaz bo‘limlaridan hamda keng jamoatchilik vakillaridan iborat tadbir doimiy o‘tkazilini kelinadi.

Tadbirlarning asosiy maqsadi talaba yoshlarning sifatli ta‘lim olishi kelajakda yetuk olim, o‘z ishining haqiqiy fidoyisi bo‘lish orqali qashshoqlikning oldini olishga qaratilgan. Tadbirlar asosiy 6 qismdan iborat bo‘ladi.

Xususan, birinchi - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish maqsadida tadbirlar tashkil etilgan.

Tumandagi madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san‘at maktabi xamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida turli to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.





Ikkinchi - yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun sport inshootida mashg'ulotlar olib borilib, 10579 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli [Farmoniga](#) asosan Belbog'li kurash, badminton, shaxmat, voleybol sport tadbirlari o'tkazildi. Mazkur sport turlari bo'yicha jami 100 dan ortiq musobaqa o'tkazilib, 9576 nafar yosh qamrab olingan.











“Universiada-2022” sport musobaqalarining respublika 3-xududiy Basketbol sport turi yakunlandi. “Universiada 2022” sport musobaqalari doirasida sportning “Basketbol” turining o‘g‘il va qiz bolalar bo‘yicha hududiy-saralash musobaqalari Samarqand shahrida 2022-yil 20-22-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tdi.

Yakuniy natijaga ko‘ra o‘g‘il bolalar o‘rtasida 1-o‘rinni Samarqand jamoasi, 2-o‘rinni Surxondaryo jamoasi va 3-o‘rinni Qashqadaryo jamoalariga nasib etdi.

Qizlar o‘rtasida 1-o‘rinni Surxondaryo jamoasi, 2-o‘rinni Samarqand jamoasi va 3-o‘rinni Qashqadaryo jamoalariga nasib etdi.





Uchinchi - aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etilib "Ilm.uz" markazi ochilgan.

Universitetdagi barcha fakultet va bo'linmalar kompyuter texnikalari bilan to'liq ta'minlangan hamda optik tolali aloqa liniyalari orqali yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan.

Talabalarga Python dasturlash tilidan maxsus seminar o'tilmoqda.



Termiz davlat universitetida ILM.UZ IT akademiyasi ochildi
Yoshlarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini
oshirish, ularning ushbu sohadagi salohiyatini yanada
rivojlantirish maqsadida Termiz davlat universiteti Axborot
texnologiyalari fakultetida ILM.UZ IT akademiyasining filiali
faoliyat boshladi.




IT akademiyasining ochilishi marosimida universitet rektori Avazjon Marahimov ishtirok etdi. Rektor yoshlarning ta'lim olishi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, shuningdek, jadallik bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari sohasi haqida ma'lumot berdi. Shundan keyin ILM.UZ asoschisi Shahzod Magdiyev akademiya haqida, uning tashkil etilishidan asosiy maqsad, undagi imkoniyatlar va akademiya o'qishning tartibi haqida batafsil ma'lumot berdi.

To'rtinchi - aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida 1 ta asosiy Axborot resurslar markazi hamda 44 ta kafedralar qoshida "tayanch kutubxonalar" faoliyati yo'lga qo'yilgan, jami 15 818 nomdagi 32 354 ta badiiy adabiyot bilan ta'minlangan.

Butun dunyoda hukm surgan pandemiya tufayli mamlakatimizda joriy etilgan karantin cheklovlari davrida o'quvchilar bilan kitobxonlik onlayn tanlovlari o'tkazilib, ularga 18469 nafar o'g'il-qiz jalb qilingan.



Beshinchi tashabbus — xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash yo'nalishida qurilgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilda 1 821 nafar, 2021-yilda 1 777 nafar, 2022-yilda 1 448 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlangan. Turli yo'nalishlarda 422 nafar xotin-qizlar qisqa muddatli kasb-hunar o'quv kurslarida o'qitilib, ishga joylashtirilgan. Ishga joylashtirish asosiy maqsad qashshoqlikni kamaytirish, yosh avlodlar o'rtasida sifatli ta'lim va yetuk mutaxassis etib o'qitish kabi asosiy tamoyil hisoblanadi.







E'LON!!!



Hurmatli talabalar, siz bir vaqtning o'zida barcha qulay sharoitlarga ega bo'lgan korxonada ham hunar o'rganishni, ham daromad olishni istaysizmi?

Unda marhamat, Zif textile mas'uliyati cheklangan jamiyati 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarni ishga taklif etadi. Trikotaj va tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan 4 qavatli binoda ishchi-xizmatchilar uchun barcha sharoit va qulayliklar mavjud.

Ya'ni umumiy ovqatlanish hamda bepul tibbiy va transport xizmatlari yaratilgan.


Malakasi yetarli bo'lmagan ishga kiruvchilarga tikish-bichish sirlari bepul o'rgatiladi.

O'rnak ko'rsatgan va namunali xulqi uchun ishchi xodimlar moddiy va ma'naviy rag'batlantirilib boriladi.

Murojaat uchun telefonlar:
 +99895-501-02-25; +99891-576-59-37; +99891-230-90-01; +99891 584-28-20; +99899-161-58-88

Zif textil mas'uliyati cheklangan jamiyati ma'muriyati





Oltinchisi – bu ommaviy ma’ruzalar bo‘lib bunda keng jamoatchilik uchun ochiq bo‘lgan ommaviy ma’ruza tadbirlari tashkil etiladi.





Bundan tashqari universitetda Universitetda Ommaviy tadbirlar rejasi mavjud bo‘lib bular quyidagilarni tashkil etadi:

1) o‘quvchilarni qishki ta’til kunlarini hamda “Yangi yil bayrami” tadbirini mazmunli tashkil etish.

2) 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan “Harbiy vatanparvarlik oyligi” doirasida “Ajdodlar qahramonligi yoshlarga ibrat”, “Mamlakatimiz qurolli kuchlari tinchlik va osoyishtaligimiz garovi” mavzularida ma’ruza, davra suhbatlari, uchrashuvlar, davra suhbatlari, ilmiy anjuman va tadbirlar tashkil etish.

3) Ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Zakovat” klublari faoliyatini rivojlantirish va turnirini o‘tkazish.

4) 21-mart – “Navro‘z” umumxalq bayrami munosabati bilan:

- liboslar ko‘rgazmasi;
- fotosuratlar va rasmlar ko‘rgazmasi;
- milliy hunarmandchilik ishlari ko‘rgazmasini tashkil qilish.

5) Yosh avlodni mehr va muruvvat ruhida tarbiyalash, boy kasbiy va hayotiy tajribalar, ezgu an’analar, madaniy-ma’rifiy qadriyatlarning uzviyligini ta’minlash maqsadida “Xotira va qadrlash kuni”ga bag‘ishlab turkum tadbir o‘tkazish.

6) Agentlik tasarrufidagi ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Musiqqa, raqs, tasviriy san’at, dramaturgiya” yo‘nalishlarida ijodiy festival tashkil etish.

7) O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi bayramini yuqori saviyada va keng miqyosda nishonlash bo‘yicha tadbirlarni tashkillashtirish.

8) 1-oktabr – o‘qituvchilar va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan “Sizga ta’zim, sizga ehtirom aziz ustozlar” shiori ostida tantanali ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazish.

9) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi qonun” qabul qilingan kunga bag‘ishlangan tadbirlar tashkil etish.

10) 8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlab “Konstitutsiya haftaligi” tadbirlarini o‘tkazish. Haftalik davomida ilmiy-amaliy anjuman, fotoko‘rgazma, trening, viktorinalar tashkil etish.

TALABALAR SHAHARCHASIDAN TASHQARIDA TA'LIMGA OID TARG'IBOT TADBIRLARI

4 QUALITY
EDUCATION



Termiz davlat universiteti talabalar shaharchasidan tashqarida ta'limga oid targ'ibot tadbirlari doimiy ravishda o'tkazib keladi. Bu targ'ibot tadbirlari avlodlar o'rtasidagi qashshoqlikni bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari targ'ibot tadbirlari natijasida sifatli ta'lim berish ko'nikmalari, mustaqil izlanish malakalari shakllanadi. Bu kabi namoyishlar o'tkazishdan natija shuni ko'rsatadiki, avlodlar o'rtasida o'z mutaxassisligini chuqur o'rganib jamiyatda o'z o'rnini topishdek, zamon bilan hamnafas bo'lishdek, ilg'or kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishdek xususiyatga ega bo'lishdir.

"Biz yoshlar giyohvandlikka qarshimiz" shiori ostida yurish marafoni bo'lib o'tdi!

Marafonga Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari, maktab o'quvchilari, tashkilot hamda muassasa rahbarlari ham jalb etildi!

Shu jumladan ushbu marafonda Termiz davlat universiteti "Yoshlar ittifoqi" hamda universitetimiz fakultet yetakchilari ham faol ishtirok etishib, giyohvandlikka qarshi kurashishni targ'ib qilishda o'z hissalarini qo'shishdi!





"ZULFIYA" NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI - XOTIN-QIZLARNING JAMIYATIMIZDAGI MAVQEINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.

5 GENDER
EQUALITY



Mamlakatimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning jamiyatdagi o'rnini va nufuzini oshirish, orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash, o'zining iqtidori va ibratli faoliyati bilan yoshlarga o'rnak bo'lib kelayotgan, turli soha va tarmoqlarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarayotgan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda chuqur bilim va intellektual salohiyatini namoyon etib, o'z g'oya va tashabbuslarini ilgari surayotgan, ijtimoiy hayotda faollik ko'rsatayotgan qizlarni munosib rag'batlantirish maqsadida "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

Ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, ozod va obod yurtimiz kelajagi bo'lgan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, barkamol, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqlol g'oyalari va madaniy-ma'naviy qadriyatlarga e'tiqodining yuksalishi yo'lidagi ibratli faoliyati, keng ko'lamlil islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini rag'batlantirish maqsadida Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri vakillariga ikkitadan har yili Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida berish an'anaga aylangan.

Ayni damda Termiz davlat universiteti, Rus filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi bo'lgan Komiljonova Nilufar Shuxrat qizi Prezident qarori bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to`g`risida"gi Qaroriga ko`ra Termiz Davlat universiteti Rus filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o`qitish yo`nalishi 3-kurs talabasi Komiljonova Nilufar Shuxrat qizi Jamoatchilik faoliyati uchun nominasiyasi bo`yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Mazkur mukofot mamlakatimizda yoshlarning hamda xotin-qizlarning jamiyatimizdagi mavqeini oshirish, ularga bo`layotgan e`tiborning samarasini yana bir bor tasdiqlaydi. Nilufar Shuhrat qizining kelgusi faoliyatiga Termiz davlat universiteti jamoasi nomidan omad va ulkan zafarlar tilab qolamiz!

Talabaning ota-onasi va ustozlariga minnatdorchilik bildiramiz, ularni ushbu muvaffaqiyat va yutuq bilan universitet rahbariyati, professor-o`qituvchilari va yoshlari nomidan samimiy tabriklaymiz!




GENDER TENGLIGINI TA'MINLAB, QIZLARNI HUQUQ IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.

5 GENDER
EQUALITY



Bugungi kunda jamiyatimizda ayollar faolligini oshirish, xotin-qizlarni bilimli, ma'rifatli qilish, gender tenglik masalalarini mustahkamlash maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunga misol Termiz davlat universitetining musiqa ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi Bokumenko Ekaterina Viktorovna bo'la oladi.

 Termiz davlat universitetining musiqa ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi Bokumenko Ekaterina Viktorovna Rossiyada bo'lib o'tgan GRAND MUSIC xalqaro konkurs "instrumental janr (fortepiano)" nominatsiyasida I darajali diplom hamda Sopravista international festivals "ALL COLOURS OF ART" ITALI" onlayn festivalida sertifikat va pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Bokumenko Yekaterina Viktorovna 1-kursdan boshlab universitetining a'lochi talabalari qatorida intizomi bilan har bir tadbirlarda o'z iqtidorini namoyon qilib faol ishtirok etib kelmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faolligi, tashabbuskorligi bilan tengdoshlari orasida ajralib turadi. Bugungi kungacha universitetda, shahar, viloyat, Respublikada va xalqaro o'tkazib borilayotgan tanlovlarda faol ishtirok etib munosib o'rinlarni egallab kelmoqda. O'z sohasida kerakli bilimlarga ega, buni "Instrumental janr (piano)" nominatsiyasi bo'yicha 1-2 darajali laureate diplomlari tasdiqlaydi.

U ko'p vaqtni olgan bilimlarini takomillashtirishga va amaliyotda qo'llashga bag'ishlaydi. U badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqadi, xalq raqslarini maromiga yetkazib ijro etadi.

International Festivals


Sopravista International Festivals
Via Parma, 2 - 47838 Riccione /RM/
Tel./Fax: +39 0541 415434
e-mail: info@sopravista.com
www.sopravista.com

VOUCHER

FOR
HIGH QUALITY OF PRESENTATION
IN
International Online Contest "All colours of Art"
3rd round - 15 december, Italy to:


Bakumenko Ekaterina Viktorovna - Uzbekistan
Sopravista International Festivals
gives names voucher for participation in all festivals-contests organized
by Sopravista International Festivals issued for

50 EURO

That amount is valid for deduction from the total fee for participation.
Voucher is valid for 2 years – 2021 and 2022.



Director of Sopravista International Festivals
/Svetlana Rumenoval/



“O‘zbekistonda tadbirkorlikning gender xususiyatlari: barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda samarali bandlikni ta’minlash.



O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini ta’minlash yuzasidan qator sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, ayniqsa, ijtimoiy hamda turmush sharoiti og‘ir talaba qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlikka jalb etish, doimiy daromad manbalarini shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda.

✦ Jumladan, Termiz davlat universitetida talaba qizlarning ta’limi olishi va huquq-manfaatlarini ta’minlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida "DIZAYN" studiyasi tashkil etildi. "DIZAYN" studiyasi Termiz davlat universitetida dizayn(milliy kostyum) hamda engil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (milliy tikuv buyumlari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida tashkil etildi.

👉 Studiya faoliyati kengaytirilmoqda, ta’lim yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari va talaba qizlari uchun qulayliklar yaratilmoqda, nazariy bilimlarni ushbu studiyada faoliyat ko‘rsatish orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirib, kelgusida talaba qizlarimiz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib o‘z daromad manbalariga ega bo‘lishadi.


✔ Kelgusida "DIZAYN" studiyasida talabalar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning ko‘rgazmasi muntazam o‘tkazib boriladi va u orqali ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga erishiladi.





Termiz davlat universiteti o'z suv qudug'iga ega.

Termiz davlat universiteti o'z suv qudug'iga ega bo'lib suv bilan ta'minlovchi 4 ta suv quduqlari mavjud, 3 ta suv yig'uvchi rezervuar mavjud. 4 dona ESV -8 markali yer osti burg'u qudug'i orqali suv ta'minoti bilan ta'minlanadi. Yillik suv olish hajmi 42.2885 ming m³. 150 ming m³/kub hajmdagi rezurvar mavjud bo'lib ushbu rezurvarlar orqali obodonlashtirish va sug'orish ishlari olib boriladi. Chiqindilar uchun loyiha bo'yicha suv kanalizatsiyalari mavjud bo'lib, Termiz shahar markaziy chiqndilar kanalizatsiyasiga yo'naltirilgan, Universitet Surxondaryo Suv oqava DUK korxonasi bilan shartnomalar (1 rasm) tuzgan bo'lib, chiqindi suvlar Termiz shahar Suv oqava korxonasi orqali tozalanadi.




Barcha suv tizimlari va Talabalar turar joylari loyiha asosida qurilgan suv ta'minlash jarayoni loyiha quvvati bo'yicha ta'minlanadi. Universitet hududida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishda suvni tejash maqsadida sug'orish tizimlari suv dojdivalkalari orqali sug'oriladi.(3 rasm)



Universitet pedagog-ishchi xodimlari va talabalar o'rtasida xududlardagi kranlar, oshxonalar, bufetlar, o'quv binolardagi hamda talabalar turar joylaridagi yuvinish xonalar hamda xojatxonalarda foydalanilayotgan suvni tejash maqsadida tushuntirish va targ'ibot ishlari rahbariyat tomonidan olib borilgan.

Yer osti suvlaridan foydalanish bo'yicha 2021-yil 25-noyabrda 3129-sonli ruxsatnoma olingan bo'lib amal qilish muddati 2026-yil 25-noyabrgacha.

 Surxondaryo gidrogeologiya stansiyasi

№ 5031-2161-9776-8b5d-aea4-8291-4450
Hujjat yaratilgan sana: 2021-11-25
Ariza raqami: 40544307

Hujjat berilgan: TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
Qabul qiluvchining identifikatsiya raqami: 200473474

Yer osti suvlaridan maxsus foydalanish yoki maxsus iste'mol qilish uchun
RUXSATNOMA
3129


Ushbu ruxsatnoma TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI ga Surxondaryo viloyati Termiz TERMIZ SHAHAR A.NAVOIY KO'CHASI 41-A MANZILGOH HAMDA B.AVLQOD KO'CHASI 43-MANZILGOH da joylashgan suv olish ob'jektidan ichimlik, sug'orish va texnik maqsadlarda yer osti suvlaridan (suvdan foydalanish maqsadlari) maxsus foydalanish yoki maxsus iste'mol qilish uchun berildi


1. Pochta manzili, telefon raqami, faks, electron pochatasi, STIR raqami Termiz shahar «A.Navoiy» kuchasi № 41- «a» manzilgox. Электрон манзил : E-mail:termizdu@umail.uz
2. Suv olish maqsadlariga qarab tavsiflar Университетни ер ости суви билан таъминлаш
3. Yillik suv olish hajmi 42.2885 ming. m³/yil, (616,55 m³/kun) ming.m³/yil.
4. Suv olish obyektlari turi (burg'i qudug'i, buloq va boshqalar) va ularning soni: 2 dona burgi kuduk (чүкүрлиги 160-165 метр)
5. Boshqa suvdan foydalanuvchiga yoki iste'molchisiga berilgan suvning hajmi (m³/kun, ming.m³/yil) mavjud эмас
6. Suv olish obyektlarida suv o'lchovchi asboblarning o'rnatilganligi (turi va markasi) va texnik holati to'g'risida ma'lumotlar mavjud эмас
7. Suv olish obyektlari va ularning atrofida sanitariya-muhofaza zonalar mavjudligi va holati 1. Ер ости сувидан оқилона фойдаланиш мақсадида бурғи кудукқа сув ҳисоблагич асбоби ўрнатиш ва сув ҳисобини юритиш. 2. Бурғи кудук атрофидаги муҳофаза зонаси талабларига риоя қилиш
8. Aylanma (ikkilamchi) suv iste'moli va suvdan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar mavjud эмас
9. Ruxsatnomaning amal qilish muddati 25.11.2026 gacha.

IBRAGIMOV DONIYOR QURBANAZAROVICH

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun repo.gov.uz veb-saytiga o'ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq elektron hujjatlardagi ma'lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portaldagi shakllantirilgan elektron hujjalarning nusxalarini nabihi nilekhi rad etilchilari nat'iqan tanlanmagan

7500



 Surxondaryo gidrogeologiya stansiyasi

№ 1794-4161-9776-19bc-7077-8642-6304
Hujjat yaratilgan sana: 2021-11-25
Ariza raqami: 40543787

Hujjat berilgan: TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
Qabul qiluvchining identifikatsiya raqami: 200473474

Yer osti suvlaridan maxsus foydalanish yoki maxsus iste'mol qilish uchun
RUXSATNOMA
3128


Ushbu ruxsatnoma TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI ga Surxondaryo viloyati Termiz TERMIZ SHAHAR «A.NAVOIY KO'CHASI 41-A MANZILGOH da joylashgan suv olish ob'jektidan ichimlik, sug'orish va texnik maqsadlarda yer osti suvlaridan (suvdan foydalanish maqsadlari) maxsus foydalanish yoki maxsus iste'mol qilish uchun berildi

1. Pochta manzili, telefon raqami, faks, electron pochatasi, STIR raqami Termiz shahar «A.Navoiy» kuchasi № 41- «a» manzilgox. Электрон манзил : E-mail:termizdu@umail.uz
2. Suv olish maqsadlariga qarab tavsiflar Университетни ер ости суви билан таъминлаш
3. Yillik suv olish hajmi 6.7705 ming. m³/yil, (48.404 m³/kun) ming.m³/yil.
4. Suv olish obyektlari turi (burg'i qudug'i, buloq va boshqalar) va ularning soni: 1 dona burgi kuduk (чүкүрлиги 160 метр)
5. Boshqa suvdan foydalanuvchiga yoki iste'molchisiga berilgan suvning hajmi (m³/kun, ming.m³/yil) mavjud эмас
6. Suv olish obyektlarida suv o'lchovchi asboblarning o'rnatilganligi (turi va markasi) va texnik holati to'g'risida ma'lumotlar mavjud эмас
7. Suv olish obyektlari va ularning atrofida sanitariya-muhofaza zonalar mavjudligi va holati 1. Ер ости сувидан оқилона фойдаланиш мақсадида бурғи кудукқа сув ҳисоблагич асбоби ўрнатиш ва сув ҳисобини юритиш. 2. Бурғи кудук атрофидаги муҳофаза зонаси талабларига риоя қилиш
8. Aylanma (ikkilamchi) suv iste'moli va suvdan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar mavjud эмас
9. Ruxsatnomaning amal qilish muddati 25.11.2026 gacha.

IBRAGIMOV DONIYOR QURBANAZAROVICH

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun repo.gov.uz veb-saytiga o'ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq elektron hujjatlardagi ma'lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portaldagi shakllantirilgan elektron hujjalarning nusxalarini nabihi nilekhi rad etilchilari nat'iqan tanlanmagan

7482



O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA FOTOELEKTRIK STANSIYADAN FOYDALANISHDAGI KAMCHILIKLAR

7 AFFORDABLE AND
CLEAN ENERGY



Turakulov L.R., Termiz davlat universiteti magistranti

Ilmiy rahbar – Yuldoshov B.A., Termiz davlat universiteti doktoranti.


Biror hududda fotoelektrik stansiya (FES) ni barpo etishda dastlab shu joyning iqlim sharoitlari o‘rganib chiqiladi. FES ning ishlashiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi. FEB lar elektr energiyasining kamayishiga asosan issiq iqlim, yuqori chang miqdori va yillar o‘tgan sari paydo bo‘ladigan turli degredatsiyalar sabab bo‘ladi. [1] tadqiqotda issiq yarim qurg‘oqchil iqlim sharoitida 5MVt quvvatga ega bo‘lgan FES ning energiya yo‘qotishlari va 10 yil davomida hosil bo‘lgan degradatsiyalar haqida ma’lumotlar berilgan. Marokashlik olimlar issiq va qurg‘oqchil iqlimda 5,94kVt FES ning quvvatiga haroratning ta’siri tahlil qilishgan [2]. [3] ishda cho‘l hududlarda joylashgan quvvati 1MW dan bo‘lgan FES, konsentrlangan quyosh stansiyasi va gibrid FES- konsentrlangan quyosh stansiyalarlar yuzasining ifloslanishi tekshirilgan. Ushbu tadqiqotda ifloslanish natijasida energiya yo‘qotilishi konsentrlangan quyosh stansiyasida FES ga qaraganda 5-6 baravar yuqori ekanligi aniqlangan. Jazoirda 30 MVt quvvatli FES ning ishlashida atrof-muhit harorati quyosh nurlanishidan ko‘ra muhimroq parametr ekanligi tasdiqlangan [4].

Bizning tadqiqotda yuqoridagi ishlardan farqli ravishda O‘zbekistonning janubiy Termiz shahri (kenglik 37o13’) chegarasiga o‘rnatilgan 4,5kVt quvvatli FES elektr parametrlariga haroratning ta’siri o‘rganilgan. FES AM 1,5 sharoitidagi umumiy quvvati 450Vt bo‘lgan monokristall kremniyli 10 ta FEB dan tashkil topgan (1-rasm).




1-rasm. Termiz shahri yaqinidagi 4,5kVt quvvatli FES

Tajriba 2022-yil avgust oyida havo harorati $\sim 41^{\circ}\text{C}$ bo'lgan sharoitda o'tkazildi. O'lchashlar soat 9:30 dan 13:30 gacha 15 daqiqa interval bilan o'tkazildi. Tajribada FES dagi umumiy salt yurish kuchlanishi va qisqa tutashuv toki o'lchab borildi va bu elektr kattaliklar asosida FES ning elektr quvvati aniqlandi (2-3-rasmlar).



2-rasm. FES yuzasiga tushayotgan yorug'lik intensivligi va qisqa tutashuv tokining kunduzgi vaqtga bog'liqligi

Havoning yuqori harorati FES salt yurish kuchlanishining pasayishiga olib keladi bu o'z navbatida stansiya quvvatining kamayishiga sabab bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. FES salt yurish kuchlanishi va elektr quvvatining kunduzgi vaqtga bog‘liqligi

3-rasmdan ko‘rinadiki, yuqori harorat ta‘sirida FES salt yurish kuchlanishi 15% ga pasaygan. Elektr quvvatining dastlab soat 12:30 gacha ortib so‘ngra kamayishini FES qisqa tutashuv tokining o‘zgarishi bilan izohlash mumkin. Umuman olganda FES larda energiya yo‘qotilishining asosiy omili undagi FEB larning isib ketishi sababli salt yurish kuchlanishining pasayishidir.

Universitet ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri, muqobil energiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlar hisoblanadi. Jumladan, universitet tayanch doktorantlari Yuldoshov Boysori Abdixoliqovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo‘yicha, “Fotoelektrik batareyalarning samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish va fotoissiqlik qurilmasini tayyorlashga tatbiq qilish” mavzusida, Tursunov Mamasobir Ochildievich 01.04.07 - Kondensirlangan holat fizikasi (fizika-matematika fanlari) ixtisosligi bo‘yicha «Kremniy panjarasidagi marganes va VI guruh kirishma atomlarining o‘zaro ta‘sirlashuvi» mavzusida hamda Abilfayziev Shokir Narmuratovich 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo‘yicha

«Kristalli kremniy asosidagi fotoissiqlik batareyalarda quyosh nurlanishining energiya yo‘qotish xususiyatlarini tadqiq qilish» mavzusida muqobil energiya manbalaridan samaradorli foydalanish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borishmoqda.



Termiz davlat universiteti qoshidagi Biznes inkubatsiya va akseleratsiya markazi 2022-yil 4-aprelda tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu markazda ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ushbu markaz a‘zolari 300 nafardan oshgan bo‘lib ular turli xil startap va ilmiy innovatsion loyihalar tanloviga qatnashib kelishmoqda.

Biznes inkubatsiya va akseleratsiya markazi bir qator yutuqlarga erishgan, ushbu yutuqlaridan biri bu markaz a'zolari "Mirzo Ulug`bek" vorislari tanlovida tuman bosqichida 25 ta viloyat bosqichida 5 nafar viloyat bosqichi g`olibi 2 nafar Respublika bosqichi g`olibi bo`lishdi.

Shuningdek markaz a`zolarining muqobil energiya manbalari bo`yicha ham bir nechta loyihalar ustida ish olib borishmoqda. Markaz loyihalari orasida muqobil energiya bo`yicha tadqiqotlar alohida o`rin tutadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi 307-sonli qarorida muqobil energiya masalalariga oid ko`plab loyihalar kiritilgan. Xususan. Termiz davlat universiteti magistranti, Choreyava Mahfuzaning "Quyosh fotoelektrik qurilmasi asosidagi elektr quvvatlashga mo`ljallangan o`rindiqlar" mavzusidagi loyihasi universitet tomonidan 150 million so`m miqdorida moliyalashtirildi. So`nggi bir necha yil ichida dunyoni qamrab olgan energiya muammolari barcha sohalarda, shu jumladan turli xil operatsiyalarni bajarish uchun elektr energiyasini talab qiladigan jamoat ob`ektlariga ham o`z ta`sirini ko`rsatmoqda.

Jamoat joylarida elektr energiyasi manbai sifatida Quyosh radiatsiyasidan foydalanish maqbul darajada amalga oshirilmagan. Ochiq obyektlarni an'anaviy elektr energiyasi manbalari bilan ta'minlash uzoq muddatli istiqbolda qimmat budjet hisob-kitoblarini talab qiladi. Biznes inkubatsiya va akseleratsiya markazi bir qator yutuqlarga erishgan, ushbu yutuqlaridan biri bu markaz a'zolari "Mirzo Ulug`bek" vorislari tanlovida tuman bosqichida 25 ta viloyat bosqichida 5 nafar viloyat bosqichi g`olibi 2 nafar Respublika bosqichi g`olibi bo`lishdi. Elektr energiyasini talab qiladigan skameykalar kabi jamoat obyektlarining mebel jihozlarida elektr energiyasi manbai sifatida Quyosh batareyalari (fotoelementlar)dan foydalanishni joriy etish iqtisodiy va samarali yechim bo`ladi.

Shu nuqtayi nazardan, Quyosh energiyasidan ochiq obyektlar uchun elektr energiyasi manbai sifatida foydalanish juda muhimdir.

Loyihaning asosiy maqsadi - ochiq jamoat ob'ektlarida bir vaqtning o'zida dam olish va barcha qurilmalarni quvvatlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan toza va ekologik jihatdan qulay, atrof-muhitga umuman zarar keltirmaydigan, Quyosh energiyasi yordamida quvvat oluvchi aqlli o'rindiqlar yasashdan iborat.



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbekistonning janubiy hududlarida foydalanishga mo'ljallangan quyosh fotoelektrik qurilmasi konstruksiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish, loyihalash, qurish va xizmat ko'rsatish

LOYIHASI



01
BOSQICH

Xitoyning "Snadi Foshon Snot Energy Electrical Technology CO. LTD" kompaniyasi bilan shartnoma tuzish va loyiha uchun texnik qurilmalar va jihozlarni ta'minlash



02
BOSQICH

Nazariy fizika kafedrasida qoshida eksperimental tajribalar o'tkazish maqsadida geliopoligon qurish



03
BOSQICH

Nazariy fizika kafedrasida qoshida ilmiy laboratoriya va konstruktiv ustaxonasi tashkil qilish



04
BOSQICH

Kichik va katta quvvatli fotoelektrik-issiqlik qurilmalarini ishlab chiqish va mahalliy tashkilotlarga shartnoma asosida sotish



05
BOSQICH

Kichik va katta quvvatli fotoelektrik stansiyalar qurish orqali universitet hovlisidagi chiroqlarni elektr energiya bilan ta'minlash va ortib qolgan elektr energiyani sotish



Loyiha qiymati: 550 mln so'm

Yaratiladigan yangi ish o'rinlari soni: 8 ta



Fotoelektrik batareyalarning turi **mono c-Si**



Foydali ish koeffitsiyeti **19-23%**



Fotoelektrik batareyaning quvvati **400W**



1kW quvvatli fotoelektrik stansiya egallaydigan maydoni **3m²**



Qurilmalarning ishlash vaqti **15 yil**



O'rnatiladigan stansiyalar quvvatlari **1kW - 10kW**



1kW stansiya narxi **11 500 000 so'm**



Ishlab chiqaradigan elektr energiya **125 000kW-soat (yiliga)**



Doimiy elektr energiya sarfi **70 000kW-soat (yiliga)**



Iste'moldan ortgan elektr energiya **55 000kW-soat (yiliga)**

Loyihaning maqsadi

Termiz davlat universiteti iqtisodiy va ekologik harajatlarini tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish

Ushbu loyiha asosida "Iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi" 22.08.2019 yil PQ-4422 sonli Prezident Qarorining ijrosini ta'minlash.

Loyiha rahbari
Termiz davlat universiteti
Nazariy fizika kafedrasini mudiri
Abdiyev U.B



Quyosh fotoelektrik qurilmasi asosidagi elektr quvvatlashga mo'ljallangan o'rindiqlar tayyorlash



Mavjud muammo

Loyiha budjeti: Loyiha budjeti 150,0 mln so'm ni tashkil qiladi (35 dona o'rindiq uchun)

Tabiiy qazilma boyliklari tugab bormoqda

An'anaviy elektr energiyasidan foydalanish qiymatga tushadi


Quyosh energiyasidan foydalanish keng yo'lga qo'yilmagan

Taklif etilayotgan yechim

Ishtab chiqilgan loyihadagi ushbu aqlli o'rindiq quyosh panellari orqali quvvatlanadi hamda aholi gavjum bo'lgan shahar markazlari, istirohat bog'lari, dam olish maskanlari, Oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hududida telefonlar, noutbuklar, kameralar va boshqa bir qancha qurilmalarni zaryadlash hamda yana ko'plab vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi.

Loyihaning maqsadi

Loyihaning maqsadi - ochiq jamoat ob'ektlarida bir vaqtning o'zida dam olish va barcha qurilmalarni quvvatlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan toza va ekologik jihatdan qulay, atrof-muhitga umuman zarar keltirmaydigan, quyosh energiyasi yordamida quvvat oluvchi aqlli o'rindiqlar yasashdan iborat.



Aqlli o'rindiqlarni loyihalash uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsad qilingan:



- Aqlli o'rindiq konstruktsiyasi ishlab chiqiladi va tayyorlanadi;
- O'rindiq sohiblari ustiga quvvat 100W (1000x670 mm) bo'lgan quyosh batareyasi o'rnatiladi;
- O'rindiqlar paketi kamrajga Inverter (1000W), Akkumulyator (24A+50Ah), 12V o'rindiqlar old tomoniga esa Kontroller (12V, 10A) o'rnatiladi;
- O'rindiq sohiblarning pastki qismiga uch dona LED lampalari (12V, 4W) va 2 dona ventilyator (12V, 0,12A) o'rnatiladi;
- O'rindiqlar old tomoniga ikki dona rozetkalar va USB porti o'rnatiladi;
- O'rindiq yo'qolqlariga g'ildiraklar o'rnatiladi;
- Tayyor bo'lgan Aqlli o'rindiq sinovdan o'tkaziladi.

Loyihani amalga oshirish muddati: Loyihani to'liq amalga oshirish uchun 12 oy vaqt talab qilinadi



- 1-oyda**
Kerakli qurilmalar sotib olinadi va o'rindiq konstruktsiyasi ishlab chiqiladi
- 2-3-oyda**
O'rindiqlar asosiy qismi yasaladi
- 4-5-oyda**
O'rindiqqa Quyosh batareyasi, inverter va akkumulyator o'rnatiladi
- 6-oyda**
O'rindiqlar barcha asosiy (USB portlar va rozetkalar) va qancha qancha noutbukdan foydalanish uchun (stol) qismlari yig'iladi
- 7-11-oyda**
Aqlli o'rindiq uchun intellektual blok identifikatsiya sistemasi uchun loyihalash ishlab chiqiladi va tegisli sinovdan va barcha qancha muvofiq sertifikat olinadi
- 12-oyda**
Aqlli o'rindiqlar seriyali ishlab chiqarish uchun hujjat tayyorlanadi



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUDDAGI ENG YIRIK ISH BERUVCHILARDAN BIRI



Termiz davlat universiteti hududdagi eng yirik ish beruvchilardan biridir. Bu dargohda 1500ga yaqin professor-o'qituvchilar va ishchi xodimlar faoliyat yuritib kelishmoqda. Termiz davlat universiteti o'zining salkam yetmish yillik ish faoliyati davomida jamiyatimizning turli sohalariga yetuk mutaxassislarni yetishtirib berdi va bugungi kunda ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlab berilgan Termiz davlat universitetining 2022-yil 26-fevraldagi №1.5-sonli kuzatuv kengashi qaroriga asosan Termiz davlat universiteti rahbar xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari (kpi)ni tasdiqlash hamda universitet va uning huzuridagi tashkilotlarning rahbar va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirishni belgilash tartibi bo'yicha ish haqi to'lash amalga oshirilgan.

(Asos; 2022-yil 26-fevraldagi №1.5-sonli kuzatuv kengashi qarori)

Universitetda xodimlarning ishchanlik qobiliyati va **mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan** (*jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi va h.k.*) Jihatlariga qarab har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga **yo'l qo'yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi.**

Mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki **ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar** (*ayollar, voyaga etmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va b.*) g'amxo'rliги bilan bog'liq farqlash **kamsitish deb hisoblanmaydi.**

Universitetda xodimdan biron jazoni qo'llash tahdidi ostida talab etish, bajarilishi uchun xodim ixtiyoriy ravishda o'z xizmatini taklif qilmagan holatda biron ishni yoki xizmatni bajarishga majbur qilish holatlariga yo'l qo'yilmaydi. Mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan **moddiy va ma'naviy zararni** to'lash to'g'risidagi ariza bilan sudga <https://my.sud.uz/> murojaat qilishi mumkin.

Universitet ulkan va ahil jamoaga ega bo'lib, umumiy xodimlar soni 1447 nafar bo'lib, shundan professor-o'qituvchilar 747 nafar, ishchi xodimlar 740 nafarni tashkil etadi. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar esa 5 549 000 (besh million besh yuz qirq to'qqiz ming) so'mni tashkil etadi. Universitet xarajatlarida salmoqli ulush ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hissasiga to'g'ri keladi. Universitetda **2021-yil** mobaynida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun 96 625,0 mlrd so'm, **2022-yilning** to'qqiz oyi mobaynida 80 087,0 mlrd so'm, stipendiyalar uchun **2021-yilda**

21 759,0 mlrd so'm, **2022-yilning** to'qqiz oyi mobaynida 3 364,0 mlrd so'm xarajatlar amalga oshirilgan.



MEHNAT AMALIYOTI EKVIVALENT HUQUQLARNI AUTSOSSING



Ta'limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasi Termiz davlat universitetining kadrlar tayyorlash va ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonatashkilotlarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanganlik darajasi Universitet kafedralari tomonidan Surxondaryo AVTOTEXXIZMAT AJ, Sho'rchidon mahsulotlari OAJ, BIO-TEXNO-EKO MChJ qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash korxonasi, Surxon Sendvich MChJ, Olmaliq AJ, Termiz shahar xalq ta'limi boshqarmasi, Surxondaryo viloyati rus madaniy markazi, Surxondaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, "Fayz Istiqlol Bunyodkori" xususiy korxonasi, Ilxom qurilish servis MChJ, Janubiy taraqqiyot MChJ, Janubiy loyiha MChJ, "Kapitel pro" MChJ loyihalashtirish tashkiloti, "Kuchkak chinori X/K, Shuxrat Jo'raev qurilish ekspertiza va nazorati MChJ, Surxon sanoat qurilish kompaniyasi, Surxondaryo viloyati QSXN inspeksiyasi, Surxondaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi, Termiz Boysun qurilish MChJ, Termiz ta'minot SKTXK, Termiz tezkor qurilish ITKT, Toshkent arxitektura-qurilish instituti, "Alian Service Denov" OK, Buxoro muhandislik texnologik instituti, "Denov mustahkam beton" xususiy korxonasi, Qumqurg'on-Surxon katta qurilish, Sherobod tuman arxitektura va qurilish, Surxon qurilish bosh boshqarmasi, Surxon sanoat qurilish kompaniyasi, Surxondaryo viloyati Fayz-Trans-Invest MChJ, "Termiz kargo sentre" MChJ, Termiz temir beton MChJ", "Surxonadaryo sinov va sertifikatlashtirish markazi davlat korxonasi", o'zR FA.o'simlik va hayvonot olami genofondi instituti, "Surxondaryo viloyati

Moliya boshqarmasi”, “o‘zagrosug‘urta OAJ” Surxondaryo filiali, “Ipoteka bank ATIB Surxonadaryo viloyat filiali”, “Agrobank OATB Surxondaryo viloyati boshqarmasi”, “Surxondaryo viloyati bo‘yicha g‘aznachilik boshqarmasi”, “Mikrokredit bank OATB” va boshqarmalar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan bo‘lib, Mazkur shartnoma mamlakatimizni ijtimoy-iktisodiy rivojlantirish buyicha ustuvor vazifalarga muvofik kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan kayta kurib chikish, xalkaro standartlar darajasida oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maksadida Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida” gi PK-2909-son karoriga muvofik tuzilgan bulib, oliy ta‘lim muassasalari ilmiy saloxiyatini mustaxkamlash, oliy ta‘limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga keng jalb etish va rivojlantirishga doir tashkiliy, uslubiy, me‘yoriy masalalarni o‘zida mujassamlashtiradi Shu maqsadlarni amalga oshirishda jamoalarimiz mas‘uliyatini his etgan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadlarini ko‘zlab yuqorida nomlari keltirilgan tashkilot va korxonalar raxbarlari bir tomondan, Termiz davlat universiteti rektori ikkinchi tomondan hamkorlik shartnomalarini tuzdilar.

Talabalar soni. Universitet talabalar kontingenti 26395 nafarni tashkil etadi. Shundan, bir oydan ortiq ish joyiga ega bo'lgan talabalar soni 9102 nafar tashkil etadi. Universitetga ishga qabul qilingan talabalar 68 nafarni tashkil etadi. Jumladan 55 nafar bakalavriat ta'lim yo'nalishida, 13 nafar magistratura mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalarni xodim sifatida ishga qabul qilingan. Ishga qabul qilingan talabalar bilan "Ustoz-shogird" an'analari yo'lga qo'yilgan bo'lib, kasb sirlari puxta o'rgatib kelinmoqda.

Talabalarni bandligini ta'minlash, ularni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish borasidagi amaliy ishlar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalari qatorida Termiz davlat universitetida ham olib borilmoqda. Termiz davlat universitetida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 4-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 19-sonli bayoni ijrosi yuzasidan talabalar bandligini ta'minlash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Respublika va hududiy miqiyosdagi potensial ish beruvchi yuridik shaxslar, korxonalar, tashkilot va muassasalar nomi, joylashgan manzili, faoliyat yo'nalishi, bo'sh lavozimlar, bo'ysinuvchi vazirlik yoki idoralar to'g'risida ma'lumotlar bazasi yaratildi va ushbu ma'lumotlar bazasiga binoan universitet, bitiruvchi hamda ish beruvchi o'rtasida uch tomonlama shartnomalar imzolandi. Surxondaryo viloyati Bandlik boshqarmasi va shahar, tumanlar bandlikka ko'maklashish hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda ish beruvchi korxonalar ma'lumotlari banki yaratildi. Surxondaryo viloyat hokimligi, Termiz davlat universiteti hamda viloyat Bandlik bosh boshqarmasi hamkorligida bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi o'tkazildi.



Yarmarkada viloyatning shahar va tumanlar darajasidagi tashkilot, muassasa, korxonalar va yirik tadbirkorlik subyektlari vakillari bo‘sh ish o‘rinlari bilan qatnashdilar.

Yarmarkada qatnashgan barcha talaba-yoshlar uchun 160 dan ortiq tashkilotlarda mavjud 2512 mingga yaqin vakant ish o‘rni taklif etildi. Mazkur yarmarkada Termiz davlat universitetining 3 ming nafardan ortiq talabasi ishtirok etib, shu yerning o‘zida 300 nafardan ortiq talabalarga ishga joylashish bo‘yicha yo‘llanmalar berildi.

2018/2022 o‘quv yili bitiruvchilarining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha viloyat, shahar va tumanlar kesimidagi ma’lumotlar universitetning
(<https://tersu.uz/struct/view/1000048>) veb sayti orqali muntazam e’lon qilib boriladi.

Surxondaryo viloyati bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi hamda (<https://tersu.uz/struct/view/1000049/>
<https://vacancy.argos.uz> <http://ish.mehnat.uz> veb-saytlaridagi ma’lumotlar asosida yangi tashkil etilayotgan bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan bitiruvchilarni doimiy tanishtirib borildi va universitet Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari burchagi tashkil etilib har oy tumanlar kesimida ma’lumotlar bazasi yangilab boriladi. Mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga uch tomonlama shartnomalar tuzish orqali bitiruvchilarni ishga taqsimlash ishlari olib borilmoqda





Termiz davlat universitetida 2019/2020 o‘quv yilida ochilgan Dizayn studiyasi

Termiz davlat universitetida 2019/2020 o‘quv yilida ochilgan Dizayn (milliy kostyum) hamda Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (milliy tikuv buyumlari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida “Dizayn” studiyasi tashkil etilgan edi.

Universitet rektori mazkur studiyada bo‘lib, yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Studiya faoliyatini kengaytirish, ta’lim yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari va talabalari uchun qulayliklar yaratish, nazariy bilimlarni ushbu studiyada faoliyat ko‘rsatish orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, kelgusida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha mas’ullarga aniq topshiriqlar berdi.

Kelgusida “Dizayn” studiyasida talabalar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning ko‘rgazmasini muntazam o‘tkazib borish va u orqali ushbu yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.



Hamkorlikdagi istiqbolli uchrashuv

Termiz davlat universitetida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasida chiqindilarni qayta ishlash va Surxondaryo viloyatning ekologik muammolari hamda ularning yechimlari” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi. Qo‘mita raisining o‘rinbosari, universitet rektori va kimyogar olimlar ishtirok etgan tadbirda bugungi ekologik vaziyat, tabiat musaffoligiga ta’sir etuvchi omillar, chiqindilar va ularni qayta ishlash, olimlarning bu boradagi ilmiy ishlarini amaliyotga joriy etishni jonlantirish kabi mavzular atroflicha muhokama etildi. Ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, hamkorlikda amaliy loyihalarga qo‘l urish, universitetda tahlil laboratoriyalarini ko‘paytirish ikki tashkilot o‘rtasidagi muhim kelishuv bo‘ldi.

Uchrashuv davomida universitet olimlari qo‘mita vakillariga voha tuprog‘i va suvlari tarkibidagi elementlarni o‘rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bo‘yicha o‘z takliflarini berdi.



26.03.2021

“XONATLAS JILOSI- 2021” MILLIY LIBOSLAR NAMOIYISHI

Joriy yilning 26 mart kuni Termiz davlat universiteti Milliy libos fakultetida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, “Dizayn Group” kompaniyasi, “INDENIM” savdo majmuasi hamda “ZIF Textile” qo‘shma korxonasi hamkorligida “Xonatlas jilosi”-2021 milliy liboslar kolleksiyasining namoyishi o‘tkazildi.

Tadbir davomida nafaqat yosh dizaynerlarning liboslar kolleksiyasi namoyishi, balki talabalar ishtirokida milliy raqs, viktorina o‘yinlari, milliy urf-odatlarimizga bag‘ishlangan sahna ko‘rinishi, she‘r va qo‘shiqlar, talaba yoshlarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi ham bo‘lib o‘tdi. Tadbir so‘ngida “Xonatlas jilosi -2021” ko‘rik tanlovida “Eng yaxshi eskizlar” hamda “Milliy liboslar kolleksiyasi” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan yosh dizaynerlar qimmatbaho sovg‘alar, diplom va sertifikatlar topshirildi.



16.04.2021

Termiz davlat universitetida ilmiy-texnik anjuman o‘tkazildi

26-aprel kuni Termiz davlat universitetida "Transport - logistika: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy - texnik anjumani bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda soha vakillari, Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasasi professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar va talabalar o‘z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Anjumanning yalpi ochilish qismida tashkiliy qo‘mita raisi, TerDU rektori, professor A.R.Marahimov kirish so‘zi bilan ochib berdi hamda logistika va yetkazib berish zanjirlarini optimallashtirish yo‘nalishlari, hududda transport muammolari, logistikaning funksional sohalari bo‘yicha ta'lim jarayonlarini tashkil etish masalalari borasida o‘z taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdi.

Yalpi majlisdan keyin Respublika ilmiy - texnik anjumani o‘z faoliyatlarini to‘rtta ixtisoslashgan seksiyalarda kun davomida davom ettirdilar.





Bazalt minerali asosida yuqori darajada to'ldirilgan yuqori haroratga chidamli va mexanik mustahkam kompaundlarni ishlab chiqarish mavzusi bo'yicha innovatsion lohiya uchun 1 400 000 000 so'm miqdoridagi grant mablag'lari yutib olindi. Ayni vaqtda loyiha ishlab chiqarish bosqichida amalga oshirilmoqda.





O‘ZBEKISTON NAFAQAT KO‘P MILLATLI DAVLAT, BALKI CHET EL FUQAROLARI TA’LIM OLADIGAN MASKANGA AYLANIB BORMOQDA.

10 REDUCED INEQUALITIES



Ma’lumki, ta’lim investitsiyasi ham mamlakat hayotida muhim yo‘nalishlardan biri bo‘la oladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari bunday investitsiya jalb qilish, ya’ni o‘z ta’lim dargohlarida xorijlik talabalarni o‘qitish orqali milliardlab mablag‘larning o‘z iqtisodlariga kirishiga erishadilar.

O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda asta-sekin qadamlar tashlashni boshladi. Innovatsiya vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yilning 1-noyabr holatiga O‘zbekistonda 2377 nafar xorijlik talabalar tahsil olmoqda. Ularning soni eng kam bo‘lgan viloyat Namangan (2 nafar). Bu borada birinchilik ko‘pchilik o‘ylaganidek poytaxt Toshkent shahrida emas (293 nafar), aksincha OTMlari soni uchta bo‘lgan uzoq Xorazm viloyati (1322 nafar). Ikkinchi o‘rinni esa Buxoro viloyati egallagan (567 nafar).

Quyidagi infografikada hududlar kesimida xorijlik talabalar soni va ulardan kelib tushgan mablag‘ miqdori ko‘rsatilgan:



Bugungi kunda yurtimizda 4730 nafar xorijlik talaba turli yoʻnalishlarda tahsil olyapti. Ular oʻrtasida oʻzbek tilida soʻzlashishga qiziqish ortib, aksariyati zabonimizdan muloqot vositasi sifatida keng foydalanayotgani ayniqsa quvonarli hol.

Turli davlatlardan kelib, yurtimiz oliy oʻquv yurtlarida taʼlim olayotgan talabalarning muloqot tili oʻzbek tiliga aylanganligi barchimizda faxr va iftixor tuygʻularini uygʻotdi.

Surxondaryo viloyatida Afgʻoniston fuqarolarini oʻqitish boʻyicha oʻquv markazi tashkil etilgan.

Markaz negizida turli sohalarda faoliyat yuritayotgan afgʻonistonlik mutaxassislar uchun qisqa muddatli kurslar va seminarlar oʻtkazilmoqda.

Bunday tadbirlarda Afgʻoniston huquq-tartibot idoralari vakillari va qishloq xoʻjaligi mutaxassislari ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari, markazda BMT Taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida “Transport va avtotaʼmirlash”, “Tikuvchilik ishi”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Agrobiznes va marketing” kabi yoʻnalishlar boʻyicha professional oʻquv kurslari ochilishi kutilmoqda.

2021-2022 oʻquv yilida respublika oliy oʻquv yurtlarida afgʻonistonlik talabalar soni 223 nafarni tashkil qildi. Bu koʻrsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 5 barobar oshdi.

Ayni paytda Termiz davlat universitetida tahsil olayotgan Afg'oniston islom respublikasi, Tojikiston respublikasi, Turkmaniston respublikasi hamda Rossiya federatsiyasidan kelib turli yo'nalishlarda o'qishni davom ettirayotgan chet ellik talabalar soni 12 tashkil qiladi.

Bular quydagilar!

1. Said Hakim Said Kabir Afg'oniston Islom Respublikasi
5111400-Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili (kunduzgi)
2. Nuraliyev Boxodir Turaxonovich Tojikiston Respublikasi
5230102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha),(kunduzgi)
3. Yeshmo'minov Sobir Sattorovich Tojikiston Respublikasi
5112000-Jismoniy madaniyat(kunduzgi)
4. Mukayeva Diana Rashidovna Rossiya Federatsiyasi
5111400-Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili (kunduzgi)
5. Namozov Yusufjon Choriyevich Rossiya Federatsiyasi
5111300-Rus tili va adabiyoti
6. Kadirova Gulshan Satarqulovna Turkmaniston Respublikasi
5140100-Biologiya (sirtqi)
7. Saparov Baxodir Xoshnazarovich Tojikiston Respublikasi
5112000-Jismoniy madaniyat (sirtqi)
8. Bobogulova Nigora Abdusattorovna Tojikiston Respublikasi
5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish(sirtqi)
9. Sharifi Gavharshod Bigom Afg'oniston Islom Respublikasi
5A120301-O'zbekiston tarixi (kunduzgi)

10. Sharifi Abdul Fatah Afg'oniston Islom Respublikasi 5A230102-Iqtisodiyot (real sektor) (kunduzgi)
11. Samadi Nuriya Afg'oniston Islom Respublikasi 5A111400-Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili (kunduzgi)
12. Nadim Mohaamad Xumoyun Afg'oniston Islom Respublikasi 5A120102-O'zbek tili (kunduzgi).

Xorijiy talabalarning xavfsizligi to'g'risida ma'lumot

Universitetida 12(o'n ikki) nafar xorijiy talabalar tahsil olmoqda. Talabalarning 7(yetti) nafari o'g'il bola hamda 5(besh) nafari qiz boladan iborat. Xorijiy talabalarning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan barcha shart sharoitlar yaratilgan va Termiz shahriga vaqtinchalik yashash uchun ro'yxatdan o'tkazilgan. Qiz bolalarning 1(bir) nafari talabalar turar joyiga ro'yxatga qo'yilgan va joy ajratilgan.

Termiz davlat universitetida 6 ta talabalar turar joylari mavjud bo'lib, tahsil olayotgan xorijiy davlat fuqarolarining 1(bir) nafari talabalar turar joyida turadi. Kadirova Gulshan Satarqulovna Turkmaniston Respublikasi fuqarosi. Kelajakda 400(to'rt yuz) o'rinla yangi zamonaviy talabalar turar joylari kurilishi rejalashtirilgan hamda xorijiy talabalarga aloxida xonalar ajratilishi mo'ljallanmoqda.

Hozirgi kunda universitet Germaniyaning Myunster universiteti, Yaponiyaning Rissy, Chexiyaning Karlova Universiteti, Rossiyaning A.S.Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti, Moskva davlat pedagogika universiteti, Fransiyaning Parijdagi G'arb va Sharq filologiyasi va arxeologiyasi laboratoriyasi, Qozog'istonning Sirdariya, Qozoq milliy agrar universiteti hamda Xitoy Xalq Respublikasining shimoliy-g'arbiy universiteti va Luoyang madaniy meros va arxeologiya instituti bilan amaldagi shartoma hamda memorandum va kelishuvlarga yega.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2014 qil 28-avgustdagi 6-son bayoniga muvofiq xorijiy fuqorolarni Respublika oliy ta'lim muassasalarida 2014/2015 o'quv yilidan boshlab ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bir yillik o'qitish qiymati belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-iyunidagi 517-sonli qarorga, ya'ni xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish suhbat asosida bo'lishini hisobga olgan holda, Termiz davlat universiteti 7-8-sentabr sanasida xorijiy talabalar uchun bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlarida og'zaki imtihonlar bo'lib o'tdi.

IJTIMOYIY HIMOYAGA MUXTOJ TALABALAR BILAN KENG QAMROVLI ISHLAR TIZIMLI DAVOM ETMOQDA.

10 REDUCED
INEQUALITIES



Termiz davlat universitetida 5210203–Psixologiya (amaliy psixologiya) 5110900 Pedagogika va Psixologiya ta’lim yo’nalishlarida Maxsus psixologiya, Psixoterapiya asoslari, Psixologik konsultatsiya, Differensial psixologiya kabi fanlar o’qitiladi.

Ushbu fanlarning dasturlarida Bugungi kunda xilma xil ekzogen va endogen omillar ta’sirida turli nuqsoni mavjud insonlar soni ortib borishi kuzatilmoqda. Ma’lumki insonda mavjud bo’lgan har qanday jismoniy kamchilik uning ruhiyatda bir qator o’zgarishlarga olib keladi va nafaqat nuqsoni mavjud bo’lgan inson hayotini, balki uning yaqinlari, atrofidagi odamlarning ham hayot tarziga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Turli toifadagi (aqli zaif, ruhiy taraqqiyoti sust, ko’zi ojiz, kar-soqov) insonlarning o’zigagina xos bo’lgan psixologik xususiyatlarni o’rganadi, ular bilan psixokorreksion va reabilitasion tadbirlar olib borish usullarini ishlab chiqadi, turli nuqsoni mavjud bo’lgan insonlar psixologiyasini o’rganish va tahlil qilish yuzasidan ko’nikma va malakalarni shakllantirish lozim bo’ladi. Shu jumladan bu fanlar dasturlarida 1. Rivojlanishida turli nuqsoni mavjud bo’lgan shaxslar psixologiyasini o’rganish; 2. Xar bir nuqsonning inson psixologiyasiga ta’siri va va shu nuqson xususiyatiga ko’ra psixologik jihatlarini o’rganish; 3. Nuqsoni mavjud bo’lgan shaxslarni amaliy o’rganish usullari haqidagi tushunchalarni shakllantirish. Turli nuqsoni mavjud bo’lgan shaxslar psixologiyasini o’rganish, ularni to’laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash va jamiyatda o’z o’rnini topa oladigan insonlar bo’lib yetishishlarida psixologik xizmatni tashkil etish va ular bilan psixokorreksion hamda

reabilitasion tadbirlarni amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston respublikasi prezidentining PQ 57 - sonli qaroriga muvofiq Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakuleiteti psixologiya kafedrasida jamoasi xam Universitetda taxsil olayotgna nogironligi bo‘lgan talabalar bilan xamkorlikda ishlab ularni psixologik xolatlari va muammolari bilan qiziqib ularga amaliy ko‘mak berishda davom etmoqda. Bugungi kunda psixologiya kafedrasida qoshida psixologik xizmat markazi o‘z faoliyatni yo‘lga qo‘yib, nogironligi bor talabalar, ijtimoiy ximoyaga muxtoj talabalar, temir daftar ro‘yxatida turuvchi talabalar bilan individual va guruxiy ishlashni ya’ni psixologik xizmat maslaxatlarni amalga oshirib kelmokda. O‘zbekiston Respublikasida xar bir fuqaroning o‘rni (nogironligi bo‘lsa xam) va uning shaxs sifatida shakllanishi doimo eng yuksak o‘rnida o‘z axamiyatga sazovor bo‘lgan.

Psixologik maslaxat xonasi: Trening jarayoni



Amaliy psixologiya 3- kurs talabasi Salimova Marjona “Tayanch harakatlanish sestemasida“ nuqsoni borligiga qaramasdan 2021-2022 – o‘quv yilida Surxondaryo viloyati hokimi stpendiya sohibasi 2022-2023- o‘quv yilida Termiz davlat universiteti rektori stpendianti sohibasi



Kutubxonalarga ommaviy kirish

Aholining kutubxonalarga, shu jumladan kitoblar va nashirlarga kirishini ta'minlash"

Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida barcha talaba-yoshlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib internet tarmoqlari, elektron kutubxona 180 ningdan ortiq o'quv, badiy adabiyotlar bilan ta'minlangan bo'lib barchasi professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar uchun xizmat qilib kelmoqda.

Barcha xizmatlardan foydalanish bepul amalga oshiriladi.

Axborot-resurs markazida kompyuter sinflari va o'quv zallari mavjud bo'lib barchasi zamonaviy jihozlangan.

Jumladan universitetda "Kitobxonlik haftaligi" har o'quv yilida o'tkazib kelinmoqda.

Kitob fikrlash qobiliyatimizni harakatga keltiradigan ixchamgina quroldir. U aqliy tanballigimiz bilan kurashishimizda bizga ko'maklashuvchi tafakkur quvvatidir.


Yoshlarni kitobxonlikka qiziqtirish ularni kitob o'qishga jalb qilish va bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida "Men do'stinga kitob sovg'a qilaman" mavzusida yarmarkalar tashkil etilib kelinmoqda.

Jumladan har tili bo'lib o'tadigan "Eng yaxshi kitobxon" tanlovlarning vazifalari - mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ'ib etish, badiiy asarlarni yaratish va qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarni hamda jamiyatimizda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va mustahkamlashda badiiy asarlar roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan badiiy asarlar bilan talaba-yoshlarni yaqindan tanishtirib borish, ularda kitobni mutolaa qilish, tahlil qilib,

o‘zlarining mustaqil fikr bildirishga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik harakati targ‘iboti ta’sirchanligini yanada oshirish, kitobning yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to‘g‘risida talabalarning tasavvurlarini yanada boyitish, iste’dodli va iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish, kitob targ‘iboti orqali yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy hamda ijodiy ishlardagi faolligini yanada oshirishdan iborat.

Kitob – zamonlar to‘lqinida suzuvchi, o‘zidagi ma'nolar xazinasini ajdodlardan avlodlarga avaylab etkazuvchi tafakkur kemasidir. Uning har bir sahifasi hikmatlarga boy va dillarga ro‘shnolik kiritib, ezgu tuyg‘ularni uyg‘otmoqqa qodir. Shu bois so‘nggi yillarda mamlakatimizda kitob mutolaasi va targ‘iboti, kitobxonlik madaniyatini oshirishga oid qator qarorlar va farmonlar qabul qilinib, yurtimizning barcha hududlarida aholi orasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, kitoblar sonini emas, kitobxonlar salmog‘ini oshirishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.







Muzeylarga jamoatchilik kirishi

Muzeylar ko‘rgazma maydonlari yoki galerialar, san‘at asarlari va artefaklarga jamoatchilikni kirishini ta‘minlash”

Termiz davlat universiteti qoshida tashkil etilgan Qatag‘on qurbonlar muzeyi ish faoliyatini yuritib kelmoqda asosiy vazifalari qatag‘onchilik siyosatining paydo bo‘lish sabablari va oqibatlarini tadqiq etish va uni mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi sifatida aks ettirish; mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash; qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog‘liq ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish va targ‘ib etishdir tashrif buyuruvchilardan xech qanday xizmat xaqqi olinmaydi. Yurtimizdagi muzeylar yurtdoshlarimiz qalbida tarixiy xotira tuyg‘usini, ezgulik va adolatning boqiyiligini, hurriyat va ozodlik ne‘matining qadrini yanada chuqurroq his etishga undaydi.

Qatag‘on qurbonlar muzeyi ham bu yorug‘ va dorilamon kunlar yo‘lida qurbon bo‘lganlar ruhini shod etish, tinch hamda osoyishta zamonning qadriga yetish, shukronalik tuyg‘ularini his etish kishiga katta quvvat bag‘ishlashi, ruhiyatni poklab, yangidan-yangi bunyodkorlik ishlariga chorlashini

Vatanimiz ozodligi yo‘lida jonini fido qilganlar xotirasini abadiylashtirish, ularning xalq va Vatan kelajagi yo‘lidagi jasorati haqida yosh avlodga ta‘sirchan ma‘lumotlar yetkazish eng muhim vazifamiz hisoblanadi.

Talabalarni muzeylar, ziyorat maskanlariga sayohat qilishini tashkil qilish

Talabalar viloyatimizdagi “Arxeologiya”, “Tarix”, universitetdagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeylari, Hakim at-Termiziy maqbarasi, Sulton Saodat majmuasi, Qirg‘iz qal‘asi, Zurmala qadimiy obidalariga ichki turizmga jalb qilindi. Ichki turizmga jami 6000 ga yaqin talaba qamrab olindi. Shuningdek, 500 dan ortiq talabalar Samarqand, Buxoro hamda Toshkent shaharlarida sayohatga chiqishdi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan “Muzeylar haftaligi” doirasida universitetning 1-kurs talabalari “Tarix va madaniyat muzeyiga” sayohat qilishdi.

Ushbu muzey Termiz shahrining ko‘rkiga ko‘rk qo‘shish bilan birga aholi, shu jumladan, yoshlarimizni tariximizga, milliy urf-odat va an‘analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Tabiat”, “Arxeologiya va tarix”, “Tasviriy san‘at”, “Mustaqillik davri” hamda “Etnografiya” singari 5 ta bo‘limdan iborat, Uning fondida 16 ta yo‘nalishda 61 ming 325 ta eksponat mavjud bo‘lib, shundan, 3150 ta eksponat noyob ashyo va kolleksiyalar sirasiga kiradi. Bu yerda saqlanayotgan nodir eksponatlardan xalqimizning ming yillik an‘analari, qadriyatlarini o‘rganish mumkin.







San'at va merosni qo'llab-quvvatlash

Talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 16 aprel kuni Termiz shahridagi muhtasham San'at saroyida Termiz davlat universiteti san'atshunoslik fakultetining talabalari tomonidan "Istiqlolni kuylagan avlod" deb nomlangan hisobot konserti bo'lib o'tdi. Unda universitet professor-o'qituvchilari, talabalar, keng jamoatchilik vakillari taklif etildi.

Konsertda universitetning "Xor" jamoasi, "Surxon sabolari" raqs ansambli, "Maqomchilar ansambli", "Savti Surxon" orkestri, "Jayxun" etnografik xalq ansambli va "Doirachilar" jamoalari jonli ijrodagi dasturlari bilan yig'ilganlarni xushnud etishdi

o'quv yili davomida yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida bir qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar: davra suhbatlari, adabiy va san'at kechalari, ko'rgazmalar, seminar, festival, ko'rik tanlov va musobaqalar tashkil etildi. Xususan:

Talabani 5 muhim tashabbus doirasidagi faoliyatga jalb etish bo'yicha –374 ta;

Talabalar o'rtasida madaniy ishlar (konsert, kitobxonlik, kino, teatr, muzey va h.k.)ni tashkil etish bo'yicha – 236 ta;

Universitetimiz talabalari viloyat miqyosida bo'lib o'tgan ommaviy tadbirlarda ham faol tarzda ishtirok etdi. Jumladan, "Navro'z" bayrami tantanalarida, 7-8-mayda Boysunda o'tkazilgan "Boysun bahori" festivali va 17-18-iyunda Termiz shahrida bo'lib o'tgan "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik" festivali va boshqa tadbirlarda faol qatnashdi.

Shuningdek, universitetda 31-mart kuni “Navro‘z sayli”, 31-may kuni ilk bora “Talabalar bahori” talaba-yoshlar festivallari o‘tkazildi. Ushbu festivallar doirasi ko‘rgazmalar, tanlovlar, “Rektor kubogi” sport musobaqalari tashkil etildi. Ushbu festivallarda jami 9000 ga yaqin talabalar qamrab olindi.

Qolaversa, haftaning har juma kunlari TTJlarida “Talabalar oqshomi” konsert dasturi o‘tkazib borildi.

Joriy yilning 27-iyunidan 15-iyuliga qadar universitetning 112 nafar volontyor talabalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida viloyatimizning barcha tumanlaridagi mahallalarda targ‘ibot, tushuntirish ishlarini olib borishdi.



CHIQUINDILARNI MINIMALLASHTIRISH YO‘LIDA UNIVERSITETDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

12 RESPONSIBLE
CONSUMPTION
AND PRODUCTION



Termiz davlat universiteti “BIO TEXNO EKO” MCHJ bilan universitetdagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo‘yicha shartnomalar rasmiylashtirilgan. Universitetda 2021-yil davomida 1118.1 kub chiqindi olib chiqilgan. Chiqindilar har juma kunlari muntazam olib chiqildi. Bundan tashqari Termiz davlat universitetida umumxalq xayriya hashari kunlari obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarida universitet hududlaridan hashar kunlari bir kunda 40 Kub chiqindilar olib chiqib ketilgan, to‘planishiga qarab navatdan tashqari chiqindilar olib ketilishi ham yo‘lga qo‘yilgan.



CHIQUINDILARNI MINIMALLASHTIRISH YO‘LIDA
UNIVERSITETDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
CHORA-TADBIRLARCLIMATE CHANGE ARE
REFLECTED IN THE PROGRAMS OF THE TERMIZ
STATE UNIVERSITY

13 CLIMATE
ACTION



Termiz davlat universitetida 5111100 - Musiqa ta'limi, 5112700 - Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi, 5120100 - Filologiya tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishlarida Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili), 5230100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari talabalariga Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kabi fanlar o'qitiladi.

Ushbu fanlarning dasturlarida iqlim o'zgarishiga doir masalalar ham o'z aksini topgan. Jumladan, ushbu dasturlarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar haqida ma'lumotlar. Ozon qatlamining yemirilishi muammosi, issiqxona effekti mexanizmi, kislotali yomg'irlar, atmosfera havosining ifloslanishiga qarshi kurash yo'llari va usullari. Radioaktivlikning biosferaga ta'siri. O'zbekiston suv havzalarining ekologik hozirgi holati. Orol va Orolbo'yi hududidagi ekologik holat va ekologik muammolari. Suv manbalarining ifloslanishining inson salomatligiga ta'siri. Iqlim o'zgarishining inson salomatligiga ta'siri, tuproqning sho'rlanish, cho'llashish sabablari hamda uning oldini olish chora tadbirlari. Tuproqning ifloslanish manbalari. Tuproq eroziyasi sabablari va uning oldini olish yo'llari. Global iqlim o'zgarishining biosferaga ta'siri kabi savollarga javob olish mumkin.



“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, mazkur loyiha doirasida Termiz davlat universiteti jamoasi ham faol ishtirok etmoqda. Jumladan 2021-yil 5-6-noyabr kunlari universitet kampuslarida va Termiz shahrida 20 000 ziyod manzarali va mevali daraxtlar ekishdi. Bu bilan iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda jamoa o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Termiz davlat univirsiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasi professori Zokirov Xolmat Xurramovichning “Surxondaryo tabiati va ekologiyasi” nomli o‘quv qo‘lanmasi chop ettirildi. Universitet axborot resurs markazida ushbu o‘quv qo‘llanmaning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Universitet talabalari o‘rtasida “Tabiat manzalari” nomli suratlar tanlovi o‘tkazildi. Ushbu tadbirda tabiatni, atrof-muhitning tabiiy xolatini asrab avaylash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, tabiatni muhofaza qilish g‘oyalari ilgari surilgan.





Barqaror baliqchilik. Mahalliy yoki milliy hamjamiyatlarga baliqchilik, akvakultura va turizmni barqaror boshqarish bo'yicha ta'lim dasturi yoki targ'ibot ishlari

14 LIFE BELOW WATER



Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti professor-o'qituvchilari Surxondaryobaliqsanoat MCHJ bilan hamkorlikda Surxondaryo viloyatidagi mavjud baliqchilik xo'jaliklaridagi ov ahamiyatiga ega baliq turlari, ularning parazit kasalliklar bilan zararlanish ko'rsatkichlarini aniqlash, monitoring o'tkazish bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lib, ikki tomonlama hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari biologiya ta'lim yo'nalishi bakalavriyat talabalarining ishlab chiqarish amaliyotlari dasturlarida ham viloyatdagi baliqchilik xo'jaliklarida amaliyot o'tashi belgilab qo'yilgan bo'lib, talabalar baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilayotgan baliq turlarini, chavaqlarni o'stirish, baliqlarni oziqlantirish va transportirovka qilish, hovuzlarni baliqlantirish bosqichlarini mukammal o'rganishib kelishmoqda.

Zoologiya kafedrasida tayanch doktorantura bosqichi mavjud bo'lib, hozirda doktorantlarimiz va stajyor o'qituvchilarimiz Surxondaryo havzasi ixtiofaunasining molekulyar identifikatsiyasi hamda O'zbekiston janubiy hududlari tabiiy suv havzalarining sanoat baliqchiligidagi ahamiyati mavzularida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

Zoologiya kafedrasida talabalar dala amaliyotida Surxondaryo viloyatidagi tabiiy suv havzalaridan to'plangan baliqlarni maxsus eritmalarda fiksatsiya qilib, kolleksiya yaratilgan va bu kolleksiyadan amaliy dars jarayonlarida foydalanilmoqda.





Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Zoologiya kafedrasining professor-o'qituvchilari Surxondaryo viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi bilan hamkorlikda viloyatdagi tabiiy suv havzalaridan noqonuniy ovchilar tomonidan ovlangan baliqlarning turini hamda ularning statusini aniqlash ishlari olib borilmoqda.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining Bioxilma xillikni asrash va hayvonlar kadasrti bo'limi hodimlari bilan hamkorlikda tabiiy suv havzalariga yaqin hududlarda yashovchi aholi vakillari bilan baliq ovlashning texnik xarakteristikasi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. SHu bilan birga baliq ovlashda baliqlarning zahiralariга e'tibor qaratish, ko'payish mavsumida umuman baliq ovlamaslik bo'yicha targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Haddan tashqari baliq ovlash va uning oqibatlarini bo'yicha mahalliy aholi vakillari bilan davra suhbatlari va targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilib, hozirgi kunda hududlarda noqonuniy ovchilar tomonidan baliqlarni elektr toki yordamida ovlash holatlari ham uchrab turgani, bu baliq zahiralari uchun juda xalokatli ekanligini doimo tushuntirib borilmoqda.



Harakat orqali suv ekotizimlarini qo‘llab-quvvatlash

Biologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalari tashabbusi bilan Toza suv, toza daryo Chiqindisiz bir kun kabi tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalar har oyning oxirgi shanba kuni Surxondaryoning Termiz shahri atrofidagi qirg‘oq bo‘yi hududlarida aholi tomonidan tashlab ketilgan maishiy chiqindilar – plastik idishlar yig‘ib olinib, maxsus qabul punktlariga topshirilmoqda. Bu harakatlar orqali keng jamoatchilik e‘tiborini suv ekotizimlarini chiqindilardan tozalash ishlariga qaratilmoqda.

**Mavjud ekotizimlarni va ularning biologik xilma-xilligini,
ayniqsa tahdid ostida bo‘lgan ekotizimlarni saqlash va
kengaytirish uchun bevosita ishlar**

Tabiiy fanlar fakulteti professor-o‘qituvchilari har yili o‘zFA Zoologiya instituti tomonidan tashkil etiladigan Respublika ilmiy amaliy konferentsiya hamda Yer resurslari va bioxilma-xillikni boshqarish bo‘yicha xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etishib kelmoqda.



Yer yuzasidagi xayot

Bugungi kunda Yerning tanazzulga uchrashi va iqlim oʻzgarishi natijasida kuchaygan qurgʻoqchilik shiddatli tus olmoqda. Dunyo aholisining salkam yarmiga qurgʻoqchilik, choʻllanish xavf solmoqda. Mamlakatimizda choʻllanish va qurgʻoqchilikka qarshi kurash ishlar samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimizning 2019-yil 22-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasida choʻllanish va qurgʻoqchilikka qarshi kurashish boʻyicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarori qabul qilindi. ushbu qarorda koʻrsatib oʻtilgan topshiriqlarni ijrosini tʻminlash maqsadida hamda 17-iyun – Jahon choʻllanish va qurgʻoqchilikka qarshi kurash kuni munosobati bilan Termiz davlat universiteti talabalari Termiz tumanidagi Kattaqum choʻl massivida “Choʻl ekotizimini asraylik” shiori ostida ekotur tashkil etdi.

Tashrif davomida talabalarga choʻl ekotizimidagi noyob oʻsimlik va hayvonot olami vakillari, ularni muhofaza qilish yoʻllari haqida maʼlumotlar berildi. Choʻllanishning oldini olish yoʻllari xaqida





Tabiatda biologik xilma-xillikni saqlash jamiyatning barqaror rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo‘lib, har bir davlatning iqtisodiy, ekologik va madaniy – estetik ehtiyojlarini qondirishning muhim resursi hisoblanadi. Chunki biologik xilma-xillik biosferani shakllantirishi, unda boshqa biologik turlar bilan birga inson ham istiqomat qilishini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

TerDU Zoologiya kafedrası professor o'qituvchilari tomonidan Surxondaryo viloyati tabiati, hayvonot dunyosi, jumladan noyob hayvon turlari bioxilma-xilligini saqlab qolish, muhofaza choralariga bag'ishlangan "Surxondaryoning noyob hayvonlari" nomli ilmiy risola yaratildi. Risola universitet, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari va o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchilari, biologiya, ekologiya sohalarida tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar, shuningdek qo'riqxonalar, tabiatni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi xodimlari hamda o'z hayotlarini ona tabiat bilan bog'liq deb biluvchi barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Ushbu risola dunyo sivilizatsiyasida munosib o'ringa ega, o'zining maftunkor tabiati, uzoq yillik tarixi, madaniyati, an'analari bilan birga o'ziga xos o'simlik va hayvonot olami rang-barangligi bilan ham doimo insonlar e'tiborini jalb etgan Surxondaryo viloyati hududida uchraydigan noyob va yo'qolib ketish arafasida turgan hayvonlar, ularning sonini saqlab qolish, ko'paytirish masalalariga bag'ishlangan. Risolada noyob hayvonlarning uchrash darajasi, muhofaza choralari, ularni ko'paytirish to'g'risida taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kitob universitet, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari va o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchilari, biologiya, ekologiya sohalarida tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar, shuningdek qo'riqxonalar, tabiatni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi xodimlari, barcha tabiat fidoyilari va qiziquvchilari uchun muhim qo'llanma bo'ladi va viloyatimiz tabiatini muhofaza qilishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

A.C. Бекмуродов

Сурхондарёнинг ноёб ҳайвонлари



Tuproqni himoya qilishni, tabiat bilan uyg'un rivojlanishini ta'minlashning bir yo'li – qishloq xo'jaligi hududlarini o'rmonlashtirish, ya'ni ihotazorlar tizimini barpo qilish lozim. Bunga dala ihotazorlarini barpo qilish, yo'llarni va sug'orish tizimlarini ihotalash, cho'l hududlarida 1 va 2 gektarlik o'rmonzorlarni ekish kiradi. Ihotazorlar tizimi tuproqni yemirilishdan himoya qiladi, uning meliorativ holatini yaxshilaydi. Sizot suvlarini bug'latib, sho'rlanishning oldini oladi, namlikni saqlaydi, iqlimni mo'tadillashtirib, qishloq xo'jaligi ekinlarining o'sishiga muqobil sharoit yaratadi va hosildorlikni 15-20 foiz oshiradi.

Oxirgi yillarda kuzatilayotgan global issiqlikning oshishi o'simliklarning rivojlanishi uchun katta to'sqinlik bo'lmoqda, uni ihotazorlar yordamida muqobillashtirish mumkin bo'ladi, ekologik muvozanatni vujudga keltiradi.



Universitetning huquq va xalqaro munosabatlar boyicha tadqiqotlarini, ularni universitetlar bilan hukumat maslahatchisi sifatida ishtirok etishi.



Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlari bilan “Ta’lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” mavzusida o‘tkazilgan yig‘ilish

Termiz shahri
18.12.2020 йил

Qatnashdilar : Surxondaryo viloyati IIB jinoyat qidiruv boshqarmasining katta tezkor vakillari kapitan Suhrobjon Mamadaliyev
Tarix fakulteti dekani t.f.d.E.Qobilov
Fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari A.Bo‘ronov
Fakultet boshlang‘ich xotin-qizlar qo‘mitasining raisasi Z.Annayeva
Jahon tarixi kafedrasida dotsentlari: X.Xolmo‘minov,
B.Rahimov, F.Yormatov, T.Pardayev katta o‘qituvchilar
G.Ahmedova, S.Sharapov, S.Rajabova
Fakultetning professor o‘qituvchilari va 120 dan ortiq iqtidorli talaba yoshlari ishtirok etishdi.

KUN TARTIBI:

“Ta’lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” mavzusidagi davra suhbat.

(A.Bo‘ronov, S.Mamadaliyev,Z.Annayeva,professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlar)

ESHITILDI: Yig‘ilishni bilan fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari Abduhakim Xolliyevich Bo‘ronov ochib berib kun tartibidagi masalalar bilan yig‘ilganlarni tanishtirib, tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad universitetda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirish, mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani muhim masala ekanligini ta’kidlab o‘tdi.



Tarix fakultetida bo‘lib o‘tgan “Ta’lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” mavzusidagi davra suhbat.

SO‘ZGA CHIQDI: Shundan so‘ng so‘z navbati Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi jinoyat qidiruv boshqarmasining katta tezkor vakili kapitan Suhrobjon Mamadaliyevga berildi.

U o‘z so‘zida korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, uning omillari, davlat va jamiyatga keltiradigan zararlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha me‘yoriy–huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgani, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda oluvchi, beruvchi va o‘rtada vositachi ham jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yilgani jumladan, eng kam oylik ish haqqining 50 barobaridan 100 barobarigacha jarima, 2 yildan 5 yilgacha ozodlikdan cheklash yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llanilishi haqida tushuntirib o‘tdi.



Tarix fakultetida bo‘lib o‘tgan “Ta’lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” mavzusidagi davra suhbat.

U o‘z so‘zida: davom etar ekan korrupsiya global muammolardan biri bo‘lib, unga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘plab xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgani, ushbu xalqaro hujjatlarning aksariyati mamlakatimizda ratifikatsiya qilingani, umuman korrupsiya va u bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish, uning oldini olish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgani xususan,

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolar huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari, davlat hamda fuqarolik jamiyati hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplar mustahkamlangani ta’kidladi.



Tarix fakultetida bo‘lib o‘tgan “Ta’lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” mavzusidagi davra suhbat.

Shundan so‘ng mavzuga oid videofilmalar namoyish etildi.

Yakunda professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlar mutaxassislardan o‘zlari qiziqtirgan savollarga javob oldi. Yuqoridagilarni inobatga olib yig‘ilish:

QAROR QILADI:

1. Tadbirda so‘zga chiqqan ma’ruzachilarning fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fakultet dekanlari, professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar va talaba-yoshlar zimmasiga:

- “Ta’lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” mavzusida tashkil etiladigan targ‘ibot - tashviqot ishlarini yuqori saviyada tashkil etish va unda faol ishtirok etish;

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish fakultet yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari **A.Bo‘ronov** zimmasiga yuklatilsin.

**Termiz davlat universiteti, “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishida tahsil oluvchi
talabalar uchun “Korrupsiya kelajakka tahdid” mavzusida
davra suhbatlari va insholar tanlovi**

Eshitildi: Seminarni “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti dekani A.Absamatov ochib berdi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Surxondaryo viloyati boshqarmasi mutaxassisi A.Abduroziqov so‘zga



chiqib, u o‘z so‘zida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, ularga imkoniyat yaratib berayotgan sabab va omillarning oldini olish bo‘yicha bir qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinayotganligini aytib o‘tdi. Shuningdek Jinoyat Kodeksining 210-moddasida pora olish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqedan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo‘lganligi uchun javobgarlik nazarda tutilganligi shuningdek tamagirlik — mansabdor shaxs tomonidan fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan xizmatiga doir harakatlarni sodir etish tahdidi ostida pora talab qilish yoki fuqaroni uning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarning oldini olish uchun pora berishga majbur etadigan sharoitga qasdan tushirishda ifodalanishini tushuntirib o‘tdilar. — O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi 2017-yil 3-yanvar kungi o‘RQ-419-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevral kungi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2752-sonli Qarori hamda 2019-yil 9-yanvar kungi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Nukus filialida “Korrupsiya kelajakka tahdid” mavzusida seminar tashkil etildi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligiga korrupsiyaga qarshi kurash vazifalari yuklatilgan va ularda tegishli tarkibiy tuzilmalar tashkil etilgan. Biroq ularning bu boradagi faoliyatini samarali bo‘lishi uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Shu maqsadda mazkur idoralarning bu boradagi faoliyati natijalarni baholab borish va ushbu organlar xodimlarining o'z vakolatlarini, huquq va majburiyatlariga va xalqning ular faoliyatiga munosabatini o'rganib borish va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga korrupsiyaga qarshi kurash borasida tegishli organlar faoliyatini monitoring qilib borish vazifasi yuklatilishi maqsadga muvofiqdir. Bu monitoring viloyat va tumanlarda fuqarolarimizning mahalliy hokimiyatlardagi rahbar kadrlarning korrupsiyaga berilganlik darajasi va huquq tartibot idoralarning korrupsiyani oldini olish borasidagi faoliyati va ular xodimlarning mansab mavqeidan qonunga muvofiq foydalanayotganligini kuzatib borishni o'z ichiga olishi lozim. Bunda Adliya vazirligi demokratik institutlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolar bilan keng hamkorlik qilishi va ularning fikrlari asosida monitoring xulosalarini tayyorlashini belgilash lozim. Yig'ilish davomida talabalar o'zlari qiziqtirgan savollarga to'lalaigicha javob olishdi va bunday tadbirlarning muntazam davom etishini so'rab o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

**Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti va
Termiz shahar 11506-harbiy qismi hamkorligida “Ogohlikni
men qanday his qilaman”
mavzusida o‘tkazilgan tadbir**

26.02.2021

Termiz

shahari

Qatnashdilar:

- 1) Xorijiy filologiya fakulteti dekani A.Xudayqulov
- 2) Xorijiy filologiya fakulteti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari B.Jumayev
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar Akademiyasi 4-bosqich kursantlari va Termiz shahar 11506-harbiy qismi psixologi N.Do‘stmurodov 30 nafar talaba yoshlar jami: 38 nafar.

Kun tartibi

“Ogohlikni men qanday his qilaman”

“Dinni o‘ziga niqob qilib, tinchlikga rahna solayotgan yomon illatlar”

“Chegara mustahkamligi Vatan osoyishtaligi ” mavzularida davra suhbat

Eshitildi :

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan tadbirni Xorijiy filologiya fakulteti dekani A.Xudayqulov ochib berdi va o‘z fikrlarini bildirdi. Mamlakatimizda beqiyos o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Qator sohalarda erishilayotgan yuksak marralar ozod va obod yurtimizning nufuzini oshirmoqda. Bunyodkor xalqimiz o‘z rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidan dadil odimlab, orzu-maqсадlariga yetmoqda. Emin-erkin mehnat qilib, tinch-osoyishta turmush kechiryapti

1. Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan tadbirni Xorijiy filologiya fakulteti dekani A.Xudayqulov ochib berdi va o'z fikrlarini bildirdi. Mamlakatimizda beqiyos o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qator sohalarda erishilayotgan yuksak marralar ozod va obod yurtimizning nufuzini oshirmoqda. Bunyodkor xalqimiz o'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lidan dadil odimlab, orzu-maqсадlariga yetmoqda. Emin-erkin mehnat qilib, tinch-osoyishta turmush kechiryapti. Har bir inson ogohlikni his qilib yashash kerak. Dunyoning turli burchaklarida islom dinini niqob qilib olgan har xil terroristik oqimlar va yovuz kuchlar tomonidan sodir etilayotgan qo'poruvchiliklar, mudhish jinoyatlar, xunrezliklar tinch aholi, kattayu kichikning hayotiga zomin bo'layotgan, shaharu qishloqlar vayronaga aylanayotgan notinch davrimiz bizni yanada ogoh va hushyor bo'lib yashashga, o'z uyimizni, ona Vatanimizni asrab avaylashga, shu shukuhli kunlarning qadriga yetishga chorlaydi. Yaratganga beadad shukrki, O'zbekistonda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda. Ko'p millatli bag'rikeng xalqimiz xotirjam turmush kechirmoqda. Biz uchun tinchlik-osoyishtalikning qadri o'zgacha. Donishmandlarimiz yurti tinchning o'zi tinch, deb bejiz aytmagan dedi.

Shudan keyin Termiz shahar 11506-harbiy qism psixologi N.Do'stmurodov ishtirok etib, shunday tinch, osoyishta yurtning qadriga yetib, halol, vijdonan, vatanni sevib yashash kerakligini ta'kidlab o'tdi. Har xil internet sayt va telegram kanallarga kirishda ham ogoh bo'lish kerakligini, bilib bilmasdan a'zo bo'lib qolish salbiy oqibatlarga olib kelishini, bunday holatlarda ham tinchlikga rahna solinayotganini aytib o'tdi. Ogohlik bor joyda tinchlik-osoyishtalik hukm suradi va yuksalish, taraqqiyot bo'ladi. Shunday ekan, tinchlik-osoyishtalikka o'z-o'zidan erishib bo'lmasligini hammamiz to'g'ri anglashimiz kerak. Bu yutuqlar qanday qo'lga kiritilgani, xalqimizga xos bo'lgan sabr-bardosh, mamlakat kelajagiga qat'iy ishonch, hamjihat-hamfikir yashash, tinchlik-osoyishtalikni asrash, bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat ko'rsatish kabi ulug' fazilatlar haqida xalqimizga, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodga so'zlab berish zarur.

Toki, bugungi murakkab sharoitda tinchlikni asrash uchun ogohlik, sezgirlik, hushyorlik har qachongidan ko‘ra muhimligini ular to‘liq tushunib yetsinlar. Bugungi zamonning o‘zi voqelikka ochiq ko‘z bilan, teran va chuqur mushohada yuritgan holda nazar tashlashni, hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali dunyo va mintaqamizda, xususan, davlatimizda ro‘y berayotgan turli voqea-hodisalar, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar haqida biryoqlama va soxta tasavvur paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik masalasi nihoyatda dolzarb sanaladi.

Shuning uchun ham har bir o‘g‘il-qiz ongiga, avvalo, Vatani va oilasi oldidagi mas‘uliyat hissini singdirishga, ularni insonparvarlik va ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga ustuvor vazifa sifatida qarashimiz kerak. Shu bilan birga, yana bir muhim masala — oila mustahkamligini saqlashdir. Zero, oila mustahkamligi zamirida Vatan osoyishtaligi mujassam. Farzandlari bilimli, imonli, mehrli, oqibatli, dunyo tanigan, yurtga fidoyi bo‘lgan oila qasri hech qachon buzilmaydi.

Xulosa shuki, bugungi murakkab va tahlikali davrda dunyo miqyosida mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib, borayotgani barchamizdan doimo sergak bo‘lish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizda hayotga ongli munosabatni shakllantirib, yon-atrofdan yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirishni taqozo etmoqda.

Bunda, avvalo, mustaqil fikr va mustahkam irodaga ega shaxsni tarbiyalash, yoshlar qalbi va ongida —sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini qaror toptirish o‘ta muhimdir. Aynan shunga ko‘ra, sharqona axloq me‘yorlariga rioya qilish, turli tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma‘naviy tarbiyani izchil davom ettirish asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Tadbir yakunida talaba-yoshlar harbiy qism saf, o'quv maydonlari, oshxona, kutubxona va o'quv xonalari bilan yaqindan tanishdi. Talabalar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha, keng javoblar berildi. Tadbir mazmunli va qiziqarli savol-javoblarga boy tarzda bo'lib o'tdi.




Termiz davlat universitetining «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-92-sonli qaroriga asosan, Termiz davlat universitetida bajarilayotgan ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-92-sonli qaroriga asosan, Termiz davlat universitetiga Termiz shahrida joylashgan jami 12 ta:

Tuproqqo‘rg‘on, Gulira‘no, Mehriobod, O‘zbekiston, Bo‘g‘ishamol, Bog‘zor, Shodlik, Alpomish, Jayxun, Abdulla Avloniy, Bo‘ston, Alisher Navoiy kabi mahallalar biriktirilgan bo‘lib, ushbu hududlarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”da turuvchi fuqarolar bilan ishlash uchun alohida harakatlar rejasi tuzilgan bo‘lib, universitet tomonidan doimiy ravishda.



**Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
jamoasi tomonidan 2021 yil davomida “Bir ziyoli - bir
mahallaga ma'naviy homiy” shiori ostida amalga oshirilgan
ishlar to'g'risida**

HISOBOT

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan “Bir mahallaga bir ziyoli – ma'naviy homiy” tamoyili asosida univesritet rektori topshirig'i bilan Iqtisodiyot va turizm fakulteti jamoasi Termiz shaxridagi Bog'zor mahallasiga biriktirildi. Mahallani o'rganish jarayonida quyidagilar aniqlandi:
 - ✓ Jami aholi soni – 5450 nafar
 - ✓ Yoshlarning jami soni – 2897 nafar
 - ✓ Shundan 18-30 yoshdagilar soni – 455 nafar
 - ✓ Shundan uyushmagan (band bo'lmagan) yoshlar soni – 23 nafar
 - ✓ «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar soni – 146 nafar
 - ✓ «Yoshlar daftari»dan chiqarilgan yoshlar soni – 56 nafar
 - ✓ “Temir daftar”da 10 ta oila ro'yxatda turadi
 - ✓ Boquvchisini yo'qotgan oilalar soni - 11
 - ✓ Yolg'iz onalar/otalar soni - 9
 - ✓ Yolg'iz keksalar soni - 3
 - ✓ Kam ta'minlangan oilalar soni - 10
 - ✓ 2 yoshgacha nafaqa oluvchilar oilalar soni - 20
 - ✓ 14 yoshgacha nafaqa oluvchilar oilalar soni - 18
 - ✓ moddiy yordam oluvchilar soni – 8
 - ✓ Nogironligi bo'lgan shaxslar soni – 45 nafar

2. Uyushmagan yoshlar bilan muntazam ishlash uchun quyidagicha namunali talabalar, professor o‘qituvchilar va nuroniylar jalb etildi:

- ✓ 17 nafar talaba
- ✓ 12 nafar professor-o‘qituvchi
- ✓ 2 nafar nuroniy

3. 2021 yil 19 may sanasida Iqtisodiyot va turizm fakulteti jamoasi o‘ziga birlashtirilgan Bog‘zor mahallasida yashovchi "Temir daftar"ga kiritilgan Boychibor ko‘chasi 2/1 uyda yashovchi 1943 yilda tug‘ilgan Jumaev Qurbon hamda Marjon ko‘chasi 19/5-uyda istiqomat qiluvchi 1981 yilda tug‘ilgan Shaymanov Utkir Maxamovichlarning xolidan xabar oldilar.



4. 2021 yil 21 may kuni Termiz shahar “Muz saroyi” atrofidagi “Bog‘zor” MFYga qarashli Obod yurt ko‘chasida joylashgan xonadonlarga mahallaga birlashtirilgan ishchi guruh bilan kirilib, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash maqsadida aholi bilan suhbat o‘tkazildi, ularning oilaviy sharoiti va muammolari o‘rganildi:

- ✓ Obod yurt ko‘chasi 8-uyda yashovchi fuqaro Quvvatov Umbar
- ✓ Obod yurt ko‘chasi 10 uyda yashovchi yog‘iz ona Saparova Muxayyoga oziq-ovqat mahsulotlari berildi



5. 2021 yil 21 may kuni Iqtisodiyot va menejment kafedrasi o'qituvchilari N.Qo'zieva, Z.Xudoyarova va Sh.Raxmatovalar tomonidan boquvchisini yo'qotgan fuqarolar xolidan xabar olinib oziq - ovqat mahsulotlari berildi, bular:

- ✓ M.Koshgariy ko'chasida yashovchi boquvchisini yo'qotgan fuqaro Isoqova Nurxon;
- ✓ Marjon ko'chasida yashovchi fuqaro Asanova Dilyara hamda Avesto ko'chasi 24 uyda yashovchi fuqaro To'raeva Navro'za



6. 2021 yil 3 iyunda Termiz shaxar Bog'zor mahallasida joylashgan 10-MTT da Turizm ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi Ashurova Maftuna bolajonlarga ingliz tilini o'rgatish maqsadida master—klass o'tib berdi. MTT raxbariyati bilan har hafta payshanba kuni ingliz tili to'garagi tashkil etish bo'yicha kelishib olindi.



7. 2021 yil 3 iyunda Surxon sport majmuasida Termiz shaxar maxallalar ýrtasida Sog'lom turmush tarzini keng tadg'ib etish va uyushmagan yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli ýtkazish maqsadida "Sport bilan og'usiz xayot sari" shiori ostida ýtkazilgan Yengil atletika sport musabogasida Bog'zor mahallasining bir qator yoshlaridan iborat jamoa ishtiroki ta'minlandi.



8. 2021 yil 4 iyunda Moliya kafedrasini professor-o'qituvchilari O.Maxmudov va M.Turanovlar Termiz shahar Bog'zor mahallasi uyushmagan yoshlari, Temir daftar, Yoshlar daftari, Ayollar daftari ro'yxatida turuvchilar o'rtasida karantin talablari asosida ochiq osmon ostida «Tadbirkorlik asoslari» bo'yicha targ'ibot tadbiri tashkil etilib, ularni fakultetda tashkil etilgan o'quv kursiga taklif etildi.



9. 2021 yilning 7 iyun sanasida Iqtisodiyot va turizm fakultetiga biriktirilgan Termiz shahridagi Bog'zor mahallasida "Bir mahallaga bir ziyoli - ma'naviy homiy!" shiori ostida mahalla aholisining 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan fuqarolari o'rtasida yoshlar oyli munosabati bilan kontser dasturi tashkil etildi. Mazkur tadbirdan mahalla aholisi xursand bo'lishdi.



10. Mahallada jami 10 ta oila “Temir daftar” da ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning xolidan doimiy xabar olinib turildi.

- ✓ Ro‘zg‘or uchun oziq-ovqatlar
- ✓ Farzandlari uchun o‘quv qurollari kabi yordamlar berib borildi.

Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida o‘qituvchisi Nurmatov Norbek Jo‘rayevichning Termiz shahri “Bog‘zor” mahallasida tashkil etgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbiri

Termiz shahri ma‘lumoti

21.01.2022-yil

Qatnashdilar: Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida o‘qituvchisi Nurmatov Norbek Jo‘rayevich va mahalla raisi T.T.Abramatov, obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha rais o‘rinbosari A.E.Hayitmurodov, uchastka noziri D.Esonov hamda mahalla fuqarolari.

2022 yil 21 yanvar kuni Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida o‘qituvchisi Nurmatov Norbek Jo‘rayevich Termiz shahri Bog‘zor mahallasiga tashrif buyurib, mahalla fuqarolari bilan Yangi O‘zbekiston strategiyasi haqida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir tashkil etdi.

Ushbu tadbir mahalla hududiga yaqin joylashgan 1-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida tashkil etilib, unda N.J.Nurmatov tadbir qatnashchilariga Yangi O‘zbekiston strategiyasi haqida batafsil ma‘lumotlar berdi.



Ma'ruzachi o'z so'zida xalqimizning orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida: yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, fuqarolar va millatlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, xalqimizning ma'naviy dunyosini yanada yuksaltirish, O'zbekistonda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir vatandoshimizning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya etish, kafolatli daromad manbai, tibbiy xizmatlar va uy-joy, sifatli ta'lim bilan ta'minlash; kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga qaratilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" ishlab chiqilganligini aytib o'tdi. N.J.Nurmatov "Yangi O'zbekiston strategiyasi"ning mazmun va mohiyati bilan tadbir ishtirokchilarini tanishtirib o'tdi.



Tadbir qatnashchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarni berishdi va ma'ruzachi ushbu savollarga batafsil javoblar berib o'tdi.



Tadbir yakunida mahalla fuqarolari Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida o‘qituvchisi N.J.Nurmatovga o‘z minnatdorchiligini bildirishdi va bu kabi tadbirlarni doimiy tarzda o‘tkazib turish mahalla aholisining ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yuksalishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladilar. Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida professor-o‘qituvchilari hamda Termiz shahar “Bog‘zor” mahallasi o‘rtasida hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR



Jayhun mahallasi yoshlari va Tarix fakulteti professor o‘qituvchilari hamda iqtidorli talabalar uchrashuvidan lavha



Uyushmagan yoshlar qatlami bilan uzluksiz ravishda tadbir va subhatlar o‘tkazib borildi

TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR

Termiz davlat universiteti sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti professor o‘qituvchilari muntazam mahalla oqsoqollari va yoshlari bilan uchrashuvlar, davra subhatlarida ishtirok etib kelmoqda






TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR

Mahallada uyushmagan yoshlar o‘rtasida sportning stol tennis va futbol musobaqalaridan lavha






TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR

Mahallada fuqarolari bilan subhatlar jarayoni




Maktab o‘quvchilari va uyushmagan yoshlar qatlamiga muntazam ravishda viloyatdagi ko‘zga ko‘ringan obida, ziyoratgohlarga tashriflari tashkil etib borildi.

TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR

Mahallada uyushmagan yoshlar o‘rtasida sport musobaqalaridan lavha






TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR

Mustaqilligimizning 31 yilligi munosabati bilan “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida o‘tkazilgan forumda Jayhun mahallasi yoshlari






TERMIZ SHAHRIDAGI JAYHUN MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR



Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularga tikuvchilik va pishiriq pishirish bo'yicha to'garaklar tashkil etildi



Qizlarning erta turmushga chiqishini oldini olishga bag'ishlangan mahalladagi har bir nuroniy onaxonlari bilan uchrashuvlar o'tkazib borildi

TERMIZ SHAHAR "ALPOMISH" MEYDGA FAOLiyAT KO'RSATADIGAN UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI BILAN TERMIZ SHAHRIDAGI "ALPOMISH" MAHALLASI HAMKORLIGIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR

Termiz davlat universitetida "Sog' tunda-sog'lom aql" shiori ostida Termiz shahridagi mahalla yoshlari o'rtasida Rektor kubogi sport musobaqalari bo'lib o'tdi. Unda Pedagogika fakultetiga birlashtirilgan "Alpomish" mahallasi yoshlari 100 metrga yugurishda erkaklar 1-o'rinni ayollar o'rtasida 3-o'rinni amerisling sport turidaa ayollar 2-o'rinni egallashdi. Mahalla yoshlarini va mahalla xodimlarini fakultet dekanı M.Mirzayev sovg'alar bilan taqdirdi.



2022 yil 21 yanvar kuni Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutorlari tashabbusi bilan Termiz shahridagi Alpomish mahallasi xududida xashar uyushtirildi. Xasharda Ijtimoiy fanlar fakulteti dekanati xamda tyutorlari tomonidan 50 tup mevali va manzarali daraxt kucatlar olib borib ekildi. Maxalla raisi Abdujabbor Muminov fakultet jamoasiga minnatdorchiilik bildirib utdi. Xasharda mahalla vakillari xam faol ishtirok etdi



TERMIZ SHAHRIDAGI ALISHER NAVOIY MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR



Mahallada uyushmagan yoshlar o'rtasida kitobxonlik kechasi



TERMIZ SHAHRIDAGI ALISHER NAVOIY MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN FOTOLAVHALAR



Mahalla raislari bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yildi



Xalqaro hamkorlikda bo‘lgan nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan tuzilgan hamkorlik ishlari



2021-yilda Termiz davlat universiteti bir nechta nodavlat va notijorat firmalar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Bunga misol qilib aytganda, arxeologiya sohasi bo‘yicha Fransiya firmasi (MR5133CNRS-Lyon) bilan hamkorlik ishlari uyushtirilib, Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanida katta qazilma ishlari olib borildi.

Bundan tashqari Rossiya bilan, fizika hamda kimyo-texnologiya sohalari ustidan juda katta qo‘shma ilmiy ishlar olib borildi. Polshaning “The Organization of Tourism and Hotel Management in Gdansk” bilan qo‘shma hamkorlik munosabatlari o‘rnatildi, hamda turizm sohasida ko‘pgina qo‘shma uchrashuvlar va tadbirlar tashkillashtirildi.

Termiz davlat universiteti nafaqat chet ellik firmalari bilan, mahalliy firmalar bilan ham hamkorlik qilmoqda. Samarqandning “Shams Work and Travel” firmasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Termiz davlat universiteti kelgusi yillarda bundan ham katta-katta Xalqaro firmalar bilan hamkorlik qilish rejaları bor





Ta'lim sifati

Termiz davlat universitetida 2021 yil may oyida Rossiyaning Adıgey davlat universiteti delegatsiyasini qabul qildi. Ushbu delegatsiya uchrashuvida quyidagi tartibda universitet a'zolari ishtirok etishdi:

Tlexatuk Susanna Ruslanovna Adıgey davlat universitetining xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori

Hoshimxo'jaeva Moxirux Muzaffarovna, Termiz davlat universiteti xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori.

Tlekhatuk Fotima Muratovna Adıgey davlat universitetining chet ellik talabalar bilan ishlash bo'limi

Chariyev Jurakul Gafforovich Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti xalqaro munosabatlar bo'limi

Eshmuratov Umid Timurovich, Termiz davlat universiteti xalqaro aloqalar bo'limi mudiri

Bakirov Poyon Uralovich, filologiya fanlari doktori, professor, Termiz davlat universiteti rus filologiyasi fakulteti dekani.

Xuzhanova Ozoda Tojievna Termiz davlat universiteti rus va jahon adabiyoti kafedrası mudiri.

Panjiev Normahmat professor, dotsent, Termiz davlat universiteti rus filologiyasi kafedrası mudiri.

Uchrashuvdan asosiy maqsad fan va ta'lim sohasidagi hamkorlini rivojlantirish, universitetlar o'ratsida qo'shma diplomli dasturlarni texnika va axborot texnologiyalari mutaxassisliklarida ochish , doktorant talabalarning qisqa muddatda amaliyot oshirishlarini tashkillashtirish masalalari muhokama qilindi.

Yuqoridagi maqsadlarga bosqichma bosqich o'tish maqsadida Adıgey davlat universitetidan professor-o'qituvchilari oktabr oyida tashrif buyurib Axborot texnologiyalari fakultetida seminar treyninglar o'tkazib berishlariga kelishildi.





Munosib mehnat va iqtisodiy taraqqiyot

Nina Hadidomova Innovatsiyalar va rivojlanish psixologiya assotsiatsiyasi magistri (Koshitsa, Slovakiya), Mariya Panoraia Kandila, IDEC S.A.Nefeli Dimopulou, Yevropa Ittifoqi loyiha menejeri, IDEC S.A. Yevropa Ittifoqi loyihasi menejeri 2021-yil iyul oyida Termiz davlat universitetiga tashrif buyurishdi va ularning tashrifi Termiz davlat universitetida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va ta‘limga asoslangan edi (O‘zbekiston).

Tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ta‘lim loyihasi doirasida Erasmus+ dasturining "Tadbirkorlik ta‘limi va ko‘nikmalarini rivojlantirish" (TRIGGER) loyihasining 2-ish paketi "Talabalarning bandligi uchun sharoit yaratish orqali talabalar uchun innovatsion yondashuvlar va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish. "Markaziy Osiyodagi oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari" (WP2) doirasida amalga oshirildi. Tadbirkorlik bo‘yicha ta‘lim loyihasi ilgari TERMEZ DAVLAT UNIVERSITETI tomonidan keltirilgan "Tadbirkorlik bo‘yicha ta‘lim, mehnat bozoridagi talablar va bilim/ko‘nikmalar bo‘yicha mavjud vaziyat" 2-WP bilan bevosita bog‘langan. Termiz davlat universitetining tadbirkorlik bo‘yicha ta‘lim strategiyasi mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va bu boradagi kadrlar bilan ta‘minlashga qaratilgan davlat dasturlariga asoslanadi.

Hukumat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlamoda. O‘zbekistonda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqilmoqda (<https://regulation.gov.uz/uz/d/61999>). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-avgustdagi “Surxondaryo viloyatida qulay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5228-sonli qarori tadbirkorlik ta’limini rivojlantirishning huquqiy asosi bo‘ladi.) mintaqada. Bundan tashqari, Termiz davlat innovatsion rivojlanish va ta’lim sifatini qo‘llab-quvvatlash universitetining 2022-2025 yillarga mo‘ljallangan dasturi ham bitiruvchilarni ish bilan ta’minlashga qaratilgan.

Universitetning EE strategiyasi viloyatdagi eng yirik ta’lim muassasasi bo‘lganligi sababli universitet bitiruvchilari va Surxondaryo viloyatining barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlariga qaratilgan. Universitetda “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti, jumladan “Iqtisodiyot”, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”, “Turizm”, “Kadrlarni boshqarish”, “Buxgalteriya hisobi va audit”, “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” kafedralari mavjud. Turli seminarlar va talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan 30 dan ortiq iqtisodiy bo‘lmagan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv kurslari majmuasini o‘quv rejasiga kiritishga qaror qilindi.

Maqsadlar:

- Universitet bitiruvchilari, bitiruvchilari, ishbiarmonlar va viloyat boshqaruv organlari xodimlarining tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirish;
- Talabalarning yangi boshlanuvchilarini qo‘llab-quvvatlash
- tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish

